

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“Himoyaga ruxsat etildi”
Magistratura bo‘limi boshlig‘i,
dotsent **G. A. Doliev**
“ _____ 2019-yil



5A120102- Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti
Ikramova Muhtaram Botirjon qizining

«MAQSUD SHAYXZODA DRAMALARINING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI»
mavzusidagi

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA
ISHI

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri: _____ f.f.d., prof. N. Uluqov.

MDI rahbari: _____ f.f.d., prof. N. Uluqov

NAMANGAN – 2019

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. Dramatik asarlar lingvopoetik tahliling ilmiy va amaliy masalalari	8
1.1. Dramatik asarlarning lisoniy o‘ziga xosliklari.....	8
1.2. Dramatik asarlarning lingvopoetik tadqiqi tamoyillari.....	14
I bob bo‘yichaxulosalar.....	18
II BOB. Maqsud Shayxzoda ilmiy faoliyati va dramalarining leksik-semantik tahlili va tavsifi	20
2.1. Maqsud Shayxzoda ilmiy faoliyati.....	20
2.2. Muallif okkozanalizmlarining lingvopoetik tabiati va vazifasi.....	33
2.3. Lug‘aviy ma’noviy ko‘chimlar – asosiy lingvostilistik unsur.....	41
II bob bo‘yichaxulosalar.....	50
III BOB. Maqsud Shayxzoda dramalariga xos fonopoetik va uslubiyy badiiy vositalar tahlili	51
3.1. Maqsud Shayxzoda dramalarining fonopoetik xususiyatlari.....	51
3.2. Drama matnlaridagi murojaat shakllarining lingvopoetik xususiyatlari.....	55
3.3. Paremlar– dramatik nutq ko‘rki.....	59
3.4. Fojia matnida forsiy, arabiy kiritmalarni qo‘llanishi va uslubiyy vazifalari.....	69
III bob bo‘yichaxulosalar.....	74
Xulosa	75
Foydalanilgan adabiyotlar	78

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va zaruriyati. Ma'naviyatimizning asosi bo'lgan adabiy tilimizni yanada rivojlantirish, xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy-ma'naviy qadriyatlarini tiklash, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy merosni o'rganish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" ilmiy-uslubiy risolasida "Nafaqat akademik ilm-fanni balki, oliy o'quv yurtlaridagi ilm-fanni rivojlantirish zarur"¹ degan fikrlar tadqiqot ishining zaruriyatini ko'rsatadi.

O'zbek badiiy adabiyotiga va shu jumladan, adabiy tilimiz rivojiga o'z ijodi bilan munosib hissa qo'shgan adiblardan biri Maqsud Shayxzodadir. Shayxzodaning turli mavzularda yaratilgan she'rlarida va dramalarida o'zbek tilining yashirin imkoniyatlari, til birliklarining o'ziga xos nozik ma'nolar ifodalashda lingvopoetik xususiyatlari, jozibasi, bo'yoqdorligi, ifodaliligi, emotsional-ekspressivligi turli vositalar yordamida namoyon bo'ladi. Ijodida betakror tasvirlarni yuzaga keltiruvchi hamda asarlari tilining badiiyatini ta'minlovchi lingvopoetik vositalardan o'rinli foydalanganligi uning so'z qo'llashda yuksak mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek tilshunosligida alohida ijodkorlar tili va uslubining lingvopoetik jihatdan o'rganishgabag'ishlangan ayrim ishlar mavjud bo'lsa-da, Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" va "Jaloliddin Manguberdi" dramalari haligacha til, janr hamdatarixiylik jihatidan maxsus o'rganilmagan. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining adabiy tilimizni yanada rivojlantirish to'g'risidagi bir qator farmonlari va qonunlari mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

¹ Мирзиёев.Ш. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент:Маънавият, 2017.– Б.202.

universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida", "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi va boshqa farmonlar bilanlangan mavzuning dolzarbligi va zaruriyatini belgilaydi.

Muammoning o'rganilish darajasi. O'zbek tilshunosligida lingvopoetika mustaqil yo'nalish sifatida rivojlanib, badiiy matnlar lingvopoetikasiga doir bir qator salmoqli ishlar, jumladan, Z. Hamidov, M. Yoqubbekova, I. Mirzaev, S. Karimov, M. Yo'ldoshev, G. Yaxshieva, A. Abdullaev, I. Hojaliev, D. Shodieva, O. Mamaziyaev, M. Abdupattaev, G. Muhammadjonova, A. M. Shofqorov, M. Akbarova larning dissertatsiya va monografiyalari yaratildi.²

Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi bir qator adabiyotshunos va tilshunoslar tomonidan o'rganilgan, ayrim she'rlari lingvopoetik jihatidan tadqiq etilgan. Shunga qaramay, o'zbek dramalari, xususan, shoir dramalarining lingvopoetik xususiyatlari bo'yicha monografik tadqiqotlar yaratilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Namangan

⁸ Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 1992. – С.52; Нурмонов А. Тилшуносликнинг адабиёт билан муносабати // Танланган асарлар. 3 жилдли. – Тошкент: Akademnashr, 2012. 3-жилд. – Б.163; Махмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. № 6. – Б.48-51; Шу муаллиф. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1987. № 4. – Б. 34-36; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати ("Кеча ва кундуз" романи мисолида): Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент: 2000. – Б.145; Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент: 2009. – Б.314; Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008; Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995; Ҳамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисан ат-тайр» Алишера Наваи: Автореф. дис. канд. филол. наук., – Тошкент, 1982. – С.24; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 93; Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фан.д-ри ...дис. – Тошкент, 1993. – Б.293; Бакиева Г.Х. Лингвистические основы анализа художественного текста: Дис. ...д-ра филол. наук. – Тошкент, 1993. – Б.388; Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар: Филол. фанлари номз. дисс. – Тошкент, 1996. – Б.132; Ҳайдаров А.А. Бадий тасвирнинг фоностилистик воситалари: Филол. фанлари номз...дисс. – Тошкент, 2008. – Б.158; Қабилова З. Ўзбек тилининг фоносемантик воситалари. Филол.фанлари номз...дисс. – Тошкент, 2008.– Б.125; Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987; Ҳожалиев И. Тасвир нутқ типининг лингвистик хусусиятлари. Филол. фанлари номз... дисс. – Фарғона, 1998. – Б.145; Чориева З.Т. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлар. номз... дис. – Тошкент, 2006. – Б.175; Шодиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент, 2007. – Б.144; Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент, 2005. – Б.132; Абдупаттаев М. Ўзбек тилида суперсинтактик бутунликлар. Филол. фанлари номз... дисс.– Тошкент, 1998.–Б.130; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари номз... дис. – Фарғона, 2003. – Б.136; Акбарова М. Алишер Навоий асарларида кофия: Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент, 1998. – Б.166; Шофқоров А.М. Миртемир шериятида такрорнинг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент, 2012. – Б.144;

davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2017-yildagi “O‘zbek tilining sistemaviy tadqiqi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” tarixiy dramalarining lingvopoetik tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

– Maqsud Shayxzoda dramalarida lisoniy birliklarni tanlash va qo‘llashdagi mahorati, o‘ziga xos individual uslubining lingvopoetik hamda badiiy-estetik xususiyatlarini aniqlash;

– dramalar tilining badiiy jihatdan to‘laqonli va pishiq, emotsional-ekspressivligini ta’minlovchi vositalarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish;

– Maqsud Shayxzoda dramalarida qo‘llangan va tilimizda ifoda-tasvir vositalari deb yuritiluvchi ko‘chma ma’no ifodalovchi birliklarning konnotativ-estetik vazifasini izohlash;

– yozuvchi dramalaridagi okkozanalizmlar, she’riy vazn talabidagi fonopoetika masalalari, qo‘llanilgan paremlar xususiyatlarini aniqlash va ularning badiiy matnlarda tutgan o‘rnini yoritish;

– Maqsud Shayxzodaning badiiy til imkoniyatlaridan hamda lingvopoetik vositalardan foydalanish mahorati yuzasidan xulosalarga kelish.

Tadqiqotning obyektisifatida Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” va “Jaloliddin Manguberdi” dramalari olinadi.

Tadqiqotning predmetini yozuvchi asarlarida qo‘llangan lingvopoetik tasvirni yuzaga keltiruvchi fonetik, leksik, sintaktik birliklar va vositalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda fonopoetik tavsiflash, semantik-stilistik, leksik-semantik, qiyoslash, lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

– dramatik asarlarning lingvopoetik tahlil qilish tamoyillari va usullari belgilangan;

– dramatik asarlarda voqea-hodisalarbadiiy timsollarning nutqi va xatti-harakatlari asosida yoritilishi va bunda tilning fonetik, leksik hamda sintaktik birliklari, vositalari muhim vazifalarni bajarishi tahlillar bilan asoslangan;

–“Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalarida tarixiy mavzuerkin vaznda, ya‘ni oq she‘rda mahorat, yuksak ta‘sirchanlik va obrazlilik bilan yoritilganligi Maqsud Shayxzodagagina xos mahorat va o‘zgachalik ekanligi ochib berilgan;

– ijodkorningtil birliklarining uslubiy imkoniyatlaridanfoydalanish va ularni o‘rinli qo‘llash mahorati yoritilgan.

Tadqiqotnatijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Maqsud Shayxzoda dramalarining tili va uslubini o‘rganishga bag‘ishlangan ushbu magistrlik ishi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan o‘rganish bo‘yicha izlanish olib boruvchi tadqiqotchilar uchun muhim ma‘lumotlar beradi. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tili, uslubshunoslik, lingvopoetika bo‘yicha o‘quv dasturlari tuzishda, badiiy matnning lisoniy tahlili bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda material vazifasini bajaradi.

Oliy ta‘lim muassasalarida matn tilshunosligi, o‘zbek tili uslubiyati, XX asr o‘zbek adabiyoti, tilshunoslik nazariyalari kabi maxsus fanlarni o‘qitish jarayonlarida uning natija va xulosalaridan foydalanish mumkin. Ishda erishilgan natijalardan o‘zbek tilshunosligida alohida olingan ijodkorlar tili va uslubi, xususan, tarixiy dramatikasarlarning lingvopoetiktabiatini, tilning imkoniyatlari va o‘zigaxos fonetik, leksik-semantik, sintaktik xususiyatlarini o‘rganish hamda o‘rgatishdafoydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.Tadqiqot natijalari 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy to‘plamlarda 5 ta ilmiy maqola hamda tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 82 sahifani

tashkil etadi.

I BOB. DRAMATIK ASARLAR LINGVOPOETIK TAHLILINING ILMIY VA AMALIY MASALALARI

1.1. Dramatik asarlarning lisoniy o‘ziga xosliklari

Til kishilarning tarixiy hayotiy tajribalarini o‘zida aks ettiradi va lisoniy zaxiralarni ajdoddan avlodga yetkazish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Til inson tafakkurining qay darajada ekanligini ko‘rsatuvchi va o‘zi xizmat qiluvchi millat yoki elat tarixidan guvohlik beruvchi qimmatli manba bo‘lib, o‘zida xalqning minglab yillar davomida to‘plagan bilish tajribasini, uning urf – odatlari va etnik ideallarini, milliy xarakteri va taraqqiyot yo‘lini aks ettiradi.³ Tilda mavjud bo‘lgan va o‘zaro aloqalarda faol qo‘llaniluvchi lug‘aviy birliklarning funksional xususiyati insonning voqelikni, voqelik faktlarini, hodisalarni atash uchun xoslanganligi bilan belgilanadi. Keyingi yillarda til va uslub, matn turlari, badiiy matn va unda til birliklarining qo‘llanish imkoniyatlarini tilshunoslikning turli sathlari doirasida tadqiq etishga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi va bu muammolar bugungi kunda ham kun tartibidan tushgan. Insonning eng nozik his-tuyg‘ulari asosida yuzaga kelgan badiiy matnlarda o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatish xususiyati kuchli tarzda namoyon bo‘ladi. Badiiy matn shu ma’noda xalqimizning o‘ziga xos mentaliteti, xarakteri, ijtimoiy turmush tarziga xos urf-odatlari, milliy-ma’naviy qadriyatlari va asrlar osha davom etib kelayotgan an’analarni o‘zida yaqqol ifodalaydi. Ijodkor tomonidan hayotni teran va sinchkovlik bilan kuzatish natijasida yuzaga kelgan har bir ijod namunasida o‘zbekona hayot aks etadi, unda keng qamrovli masalalar qatori badiiy adabiyotimiz muammolari ham bo‘rtib turadi. Badiiy matnlar millat ma’naviy dunyoqarashi, orzu-istaklarini tildagi mavjud usul va vositalar, lisoniy birliklar orqali yorqin ranglarda ifodalab beradiki, bu xususiyat uni san’atning boshqa turlaridan bir pog‘ona yuqori ko‘taradi. Shu o‘rinda har bir badiiy ijod namunasining mukammal bo‘lishi bevosita unda g‘oya va ifoda uyg‘unligidan iborat ekanligi, til va adabiyotning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, ularning bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar ekanligi ayon bo‘ladi.

³Xusanov B., Fuломov V. Muomala madaniyati. – Toshkent, 2007. – B.4.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matnlarni o‘rganish borasida turli yo‘nalishda tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tilimiz tarixi, mumtoz asarlar tilini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar jumlasiga G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov⁴, X. Doniyorov⁵, Z.Hamidov⁶, B.Bafojev⁷larning tadqiqotlarini kiritish mumkin. X.Abdurahmonov, N.Mahmudov⁸, E.Begmatov⁹, N.Shukurov¹⁰, G.Imomova¹¹, B.Yo‘ldoshev, F.Bobojonov, Z.Pardayev¹², G.Muhammadjonova¹³, B.Ro‘zimuhammad¹⁴, Y.Solijonov¹⁵, P.Qodirov¹⁶ va boshqalarning ishlarida badiiy asar tilini o‘rganish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy muammolar haqida fikr yuritilgan. Qayd etish lozimki, o‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda mazkur yo‘nalishdagi kuzatishlarda ma’lum bir evrilish yuzaga kelganligi seziladi. Bunday izlanishlar orasida badiiy asar tiliga lingvopoetik jihatdan yondashilgan, bu asarlarda qo‘llanilgan til birliklarini poetik nutq o‘lchovlari asosida baholashga qaratilgan ishlar ham anchagina. Tilshunosligimizda poetik nutqning til xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ham keng qamrovli izlanishlar olib borildi va ko‘plab ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu tadqiqotlarda poetik nutqda qo‘llangan badiiy tasviriy vositalarning lisoniy, semantik, stilistik xususiyatlarini yoritishga harakat qilingan. Aytish lozimki, badiiy tilni o‘rganishda ko‘proq leksik birliklarning lingvopoetikasiga e’tibor qilinganligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, tilshunos L.Abdullayeva o‘zining monografiyasida o‘zbek badiiy adabiyoti tilining leksik stilistikasi muammolari haqida fikr yuritgan.

⁴ Абдурахмонов Г., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984.

⁵ Дониёров Х. Навоий ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972.

⁶ Ҳамидов З. Навоий бадий санъатлари. – Тошкент: Университет, 2001.

⁷ Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991; Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983.

⁸ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 6-38.

⁹ Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг ижтимоий тарихий асослари // Ўзбек тили лексикологияси, Тошкент: Фан, 1981. – Б. 41-152.

¹⁰ Шукуров Н. Бадий услуб ва бадий тил // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. – №.4. – Б. 4- 9.

¹¹ Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадий нутқнинг роли: НДА. – Тошкент, 1993. – Б.7-21.

¹² Йўлдошев Б., Бобожонов Ф., Пардаев З. Бадий асар тили масалалари. – Навоий: Навоий ДПИ нашри, 2001. – Б. 5-8.

¹³ Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: НДА. – Тошкент, 2004. – Б.7-17.

¹⁴ Рўзимухаммад Б. Тил – асарнинг танаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1997,5 декабрь,

¹⁵ Солижонов Й. Бадий асарда монологик нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004. – №3. – Б.16-20; Бадий нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979. – № 2. – Б.71-75; XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: ДДА. – Тошкент, 2002. – Б.38.

¹⁶ Қодиров П. Тил ва эл (Темурийлар давридаги мумтоз адабий тилимиз муаммолари). – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. – 248 б.

E.Qilichev esa «Badiiy tasvirning leksik vositalari» (1982) deb nomlangan kitobida badiiy tasvirda ishtirok etadigan leksik vositalar, ularning ifoda imkoniyatlari bilan bogʻliq masalalar ustida toʻxtalgan. B.Umurqulovning «Poetik nutq leksikasi» (1990) nomli monografiyasida hozirgi oʻzbek sheʼriyati tilining leksik manbalari, poetik leksika, anʼanaviy poetizmlar, soʻz variantlari va ularning estetik qimmati kabi masalalar tadqiq etilgan. Koʻrinib turganiday, oʻzbek tilshunosligida badiiy asar tilining lingvopoetikasi boʻyicha ancha-muncha ishlar qilingan. Ammo bu yoʻnalishdagi tadqiqotlar doirasi nechogʻlik katta boʻlishiga qaramasdan, ular adabiyotimiz tarixida alohida oʻrin tutadigan jiddiy asarlarning barchasini qamrab olgan deb boʻlmaydi. Shu oʻrinda bir savol tugʻiladi. Lingvopoetik tahlil nima? Sof lingvistik kuzatishda badiiy asar tili, unda qoʻllanilgan til birliklarining mavqeyini aniqlashda ularning leksik-grammatik xususiyatlariga, gapda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish qonuniyatlariga asoslanilsa, uslubiy xususiyatlar esa mazkur birliklarning nutqning qaysi koʻrinishi uchun xoslanganligiga qarab belgilanadi. Lingvopoetik tahlilda esa masalaga faqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki umumfilologik jihatdan yondashiladi. Til birligining ham lisoniy xususiyatlari, ham poetik matnni shakllantirishdagi imkoniyatlari hisobga olinadi.

Badiiy adabiyot turfajanrlarga boydir, xususan, drama janrida ham badiiy matnlar salmoqli oʻrinni egallaydi. Bu kabi asarlarning koʻpi esa tilshunoslik nuqtayi nazaridan oʻrganilgan va lingvopoetik jihatdan ham tahlil qilingan. Oʻzbek tilshunosligida dramatik matnlar bir tomondan tilimiz taraqqiyotini koʻrsatishda muhim ahamiyat kasb etsa, boshqa tomondan adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qoʻshgan ijodkorlarning badiiy til vositalarini qoʻllash imkoniyatlarini, ularning asarlaridagi personaj nutqi va muallif nutqi munosabati va unda emotsionallik, ekspressivlik, modallik, obrazlilik kabi xususiyatlarning namoyon boʻlishi haqida maʼlumot beruvchi muayyan ilmiy manba ham hisoblanadi. Oʻzbek tilshunosligida dramatik asarlarni lingvopoetik yoʻnalishda tahlil qilingan ishlar koʻp boʻlib, keyingi yillarda bu sohada ilgari olib borilgan tadqiqotlardan jiddiy farq qiluvchi asarlar maydonga kelmoqda. Ularda mavzu mohiyatiga antroposentrik nuqtayi nazaridan yondashuv, yaʼni badiiy asar tilining uslubiy, badiiy-estetik jihatlarini

to'g'ridan to'g'ri inson omiliga, uning milliy an'ana va qadriyatlarimizga bo'lgan munosabatiga bog'lab talqin qilish yetakchilik qilmoqda.

Har bir janrning o'ziga xos uslubi mavjud bo'lganidek, chunonchi, dramatik turning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning sahnada ijro qilinishidir. Dramatik asar sahnada qo'yilmas ekan, tomoshabin aktyorning harakat va holatini kuzatib, so'zlarini tinglamas ekan, haqiqiy badiiy asar darajasiga ko'tarila olmaydi. Binobarin, drama o'zining matni bilan so'z san'atiga mansub bo'lsa, sahnada ijro etilishi jihatidan teatr san'atiga daxldordir.



1-chizma. Dramatik turning so'z san'atiga va teatr san'atiga bog'liqligi.

Shu bois ham bu turdagi asarlarni o'rgatish, tahlil qilish jarayoni bir qancha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bunday asarlarda muallif nutqining bo'lmasligi adabiyotchining ishini yanada og'irlashtiradi. Shu bilan birga bu turdagi asarlarni o'rganishda ifodali o'qishning o'rni alohida bo'lib, ohang, pauza, ovozning baland-pastligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dramada dramatik xarakter tomoshabin ko'z o'ngida hozirning o'zida sodir bo'layotgandek ko'rinadi. Shunga ko'ra poeziyaning boshqa turlariga nisbatan ba'zan drama kishilar qalbiga va ongiga kuchliroq ta'sir ko'rsata oladi. Bu ta'sirning qudratini oshirishda saxna muxim ro'l o'ynaydi. Bu esa dramatik turning o'ziga xos amaliy masalalaridandir. Dramada tomoshabin ko'z o'ngida kishilarning jonli so'zlashuvlari bilan bir qatorda imo-ishoralari, tabassum va qaxqaxalari, iztirobli yig'ilari va ko'z yoshlari xuddi xayotdagi kabi gavdalangandek bo'ladi.

Dramatizm tarixiga nazar solsak, drama – g'arb adabiyotida VIII asrda maydonga kelgan. O'zbek adabiyotida esa dramaning dastlabki namunalari XX asrning dastlabki yillarida yaratila boshlagan. Hamza ijodi adabiyotimizda drama janri taraqqiyotiga barakali ta'sir ko'rsatadi. Behbudiyning “Padarkush”, Xamzaning “Zaxarli xayot” va boshqa o'sha davr asnosida yozilgan asarlarda xalq hayotini ilm-ma'rifat asosida o'zgartirish, yaxshilash mumkinligi haqidagi g'oya

yetakchi o`rinda turadi. O`zbek dramaturgiyasi haqida so`z borar ekan, yozuvchi va dramaturg jamoat arbobi Maxmudxo`ja Behbudiy va uning ajoyib, asari “Padarkush”ni esga olish joizdir. Behbudiy uzoqni ko`ra biluvchi, xalq xayotini, dardini chuqur anglay oluvchi, uning og`irini yengil qilishni xayotining mazmuni deb bilgan arbob edi. Xalqi, Vatani uchun fidoiylarcha yashagan, mehnat qilgan Behbudiyning umri, xayoti ham mohiyat e`tibori bilan shu xalq, shu vatan uchun fido bo`ldi. *“Agar bizning hayotimiz g`urriyat va xalq baxt – saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo`lsa, biz o`limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz”*,¹⁷– degan edi Behbudiy vasiyatnomasida. Davr muhitida yaratilgan asarlar tilshunoslar va adabiyotchilarimiz tomonidan keng ko`lamda tahlil qilingan.

Dramatik asarlar lingvopoetik jihatdan o`rganilar ekan, uning bir qator ilmiy va amaliy masalalari mavjud. Shu o`rinda har bir dramatik asarlarning bor bo`y-u bastini ko`rsatib turuvchi o`ziga xosligi uning lisonidir. Dramatik asar tili, birinchi o`rinda, bir qadar ko`tarinki, aytilishi jarangli, eshitilishi aniq bo`lishi lozim. Chunki u saxnada qo`yilishi zarurligi, tomoshaxonaning turli burchaklarida o`tirganlarga eshitilishi uchun shunday xususiyatlarga ega bo`lishi joiz. Drama turiga mansub asarlarning lisoniy jihatdan yana bir muhim tomoni voqealar ketma-ketligi qahramonlarning dialoglari shaklida beriladi. Muallif har bir dramatik qahramonni harakatga keltirar ekan, ularni harakterini ochib beruvchi lisoniy vositalarni ham o`rinli tanlay bilishi shart. Dramada til leksikasidan samarali vao`rinli foydalanish esa xalq tilining naqadar boy til ekanligini, dunyoqarashi-yu urf-adatlarini, ma`naviyatini, madaniyatini qanday ekanligini ko`rsatib beradi. Dramatik asarlarda konflikt ham kuchli bo`lishi zarur va bu o`rinda muallif qahramon nutqiga xos murojaat shakllarini ham o`rinli tanlay bilishi lozim. Dunyodagi barcha dramatik qahramonlarning bir qadar sun`iyroq tilda so`zlashishi L. Tolstoy tomonidan tanqid qilinganligi sababi ham shunda. Drama qahramonlari kuyuk tuyg`ular, hissiyotlar bo`roni og`ushida yashaydilar, kuchli to`qnashuvlarni boshdan kechiradilar, keskin va ta`sirchan tilda so`zlashadilar, har qanday voqea-hodisaga keskin va kutilmagan munosabat bildirishga moyil

¹⁷www.ziyounet.uz

bo'ladilar. Bu esa dramatik asar yozayotgan muallifning til imkoniyatlarining bilimdoni bo'lishni taqazo etadi. Xuddi shunday jihatlarni bilgan va hisobga olgan tahlilchigina dramatik turdagi asarlarning mag'zini chaqa oladi. Yana bir muhim jihat shundaki, dramatik asarni tahlil qilish boshqa-yu, shu asosda o'ynalgan spektaklni tahlil qilish tamomila boshqa narsadir, chunki so'z san'ati namunasi bo'lmish drama spektaklga aylangan teatr san'ati namunasiga evriladi va o'sha san'atning qoidalariga muvofiq yashay boshlaydi.

Drama matnida, shuningdek, asarga hos saxna, parda, ko'rinish, monolog, dialog, remarka, prolog, epilog singari saxnaviy tushunchalarni anglatuvchi leksemalar mavjud bo'ladi va ular to'g'risida to'liq nazariy ma'lumotga ega bo'lish kerak. Negaki, shu hildagi nazariy ma'lumotsiz saxna asarini tushunib ham, tahlil qilib ham bo'lmaydi. Dramatik asarning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, dramada badiiy hodisa xayot hodisasiga aylangan, kishining sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etish qudratiga ega bo'lgan yagona adabiy turdir. Dramada qahramonlar xarakteri voqelik tarzida, tomoshachining ko'z oldida namoyon bo'ladi va kuchli ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham drama asarlarini tahlil qilish anchagina murakkabroqdir. Kuchli insoniy xarakterlar, to'qnashuvlaridan o't chaqnaydigan xayotiy ziddiyatlarning asosini topish, drama qahramonlari ruhiy to'lg'oqlari bilan tanishish orqali kishida insoniy pozitsiya va ma'naviy qadriyatlar tizimi shakllanadi. Dramatizm yo'nalishida yozilgan bir qator ijodkorlar asarlarini tahlil qilish orqali tilda mavjud bo'lgan leksik, morfologik, sintaktik, frazeologik va grammatik birliklarning muomalaga kiritilishi to'g'ridan to'g'ri poetik nutq talabi bilan yuzaga kelishi, til birligining poetik vositaga aylanishi, so'zlovchining kommunikativ maqsadi hamda nutq qaratilgan shaxsga bo'lgan munosabatidan kelib chiqishi, nutqiy vaziyat uchun mos keladigan poetizmlarning to'g'ri tanlanishi uni emotsional-ekspressiv vositaga aylanishini ko'rishimiz mumkin. Bu esa dramatik asarlarning boshqa janrdagi asarlardan farqli tomonlarini va o'ziga xosligini yana bir bor isbotlab beradi.

1.2. Dramatik asarlarning lingvopoetik tadqiqi

Sharq adabiyotida soʻz juda qadrlanadi va katta kuchga ega deb eʼtirof etiladi. Bu bejiz emas albatta. Rivoyatlarda aytilishicha, Oллоh taollo butun olamni birgina soʻz bilan, yaʼni کن – “yaral” soʻzi bilan yaratdi. Oʻn sakkiz ming olam undagi minglab, millionlab jonivor, hayvon, oʻsimliklar, inson ham shu soʻz bilan olti kunda yaraldi.¹⁸ Dunyoda dastlab jamiki mavjudodlardan oldin shu soʻz paydo boʻldi. Bu soʻzning naqadar katta kuchga egaligini koʻrsatadi. Soʻz badiiy tasvirning asosiy vositasi, obraz yaratishning, uni individuallashtirishning muhim omillaridan biri sanaladi. Soʻzsiz, ekspressivlikni ifodalovchi fonetik, morfologik, sintaktik vositalar ishtirokisiz obʼektiv borliqdagi narsa predmetlarni, hodisalarni aniq tasvirlash mumkin emas. Azal-azaldan soʻzlar vositasida ana shunday leksik-semantik guruhlar va turli xil maʼno koʻchish yoʻllarini hosil qilingan. Buning natijasi oʻlaroq asar badiiy saviyasi oshgan va oʻz badiiy qimmatini saqlagan holda avlodlargacha yetib kelgan.


“Tilshunoslik fani badiiy adabiyot bilan uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina boʻlib qolmay, balki tinglovchiga taʼsir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi anʼanaviy va sistem-struktur tilshunoslikning oʻrganish obyekti boʻlsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning oʻrganish obyektidir”, – deb yozadi A.Nurmonov va Sh.Iskandarova.

Lingvopoetika – lingvistik poetikaning qisqargan shakli boʻlib, badiiy asarlarda qoʻllanilgan lingvistik birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini oʻrganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika badiiy nutqni oʻrganuvchi tilshunoslikning boʻlimidir. Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi.

Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamaları tez-tez uchrab turadi. Bu atamalar ifodalangan tushunchalar bir-biriga juda yaqin tursa ham, lekin oʻzaro maʼlum jihatlari bilan farq qiladi. *Obraz, uslub, koʻchim (trop), badiiy til,*

¹⁸www.ziynet.uz

stilistika, poetika kabi tushunchalar badiiy asar tili va lingvistik poetika uchun daxldor tushunchalardir.



2-chizma. Lingvopoetik – filologik fanlarni tutashtiruvchi ilm.

M.Yoʻldoshev tomonidan amalga oshirilgan ishlar oʻzbek lingvopoetikasini yana bir bosqich yuqoriga koʻtardi. A.Hasanov bu boradagi tadqiqotlarda erishilgan yutuqlarni qayd qilar ekan, haqli ravishda shunday taʼkidlaydi: “Ayniqsa, M.Yoʻldoshev tomonidan badiiy matn lingvopoetik xususiyatlarining oʻzbek tilshunosligida birinchi marta dissertatsion planda tadqiq etilishi bu boradagi ishlarni yana bir pogʻona yuqoriga koʻtardi. Olim badiiy matnning lingvopoetik tahlil etishning yetti tamoyilini: shakl va mazmun birligi, makon va zamon birligi, matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash, badiiy matnga badiiy-estetik butunlik sifatida yondashish va asar konseptini aniqlash, badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash, badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash, badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyillarini ishlab chiqdi”¹⁹.

Lingvopoetika masalasi boʻyicha keng koʻlamda ishlar olib borildi. Adabiyot maydonida qalam tebratgan mashhur shoir va yozuvchilarimizning mazmundor asarlari lingvopoetik jihatdan tadqiq etildi va oʻrganildi. Jumladan, drama janridagi asarlar ham tilshunoslar eʼtiboridan chetda qolgan emas. Drama

¹⁹ Xasanov A.A. A.Qahqor hikoyalari tilining badiiyatini taʼminlovchi leksik-stilistik vositalar: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2010. – B.8.

masalasida Uzoq Jo'raqulovning "Nazariy poetika masalalari" nomli tadqiqotlar to'plami ilmiy-nazariy qimmatini, qarashlarning yangiligi bilan alohida yo'nalish sifatida baholashga loyiq. Kitob istiqlol davri adabiyotshunosligida bir qadar nazardan chetda qolayotgan, aniqrog'i, muayyan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish vaqti-soati kelishini kutib turgan nazariy masalalarni tadqiq etishi bilan xarakterlanadi. To'rt bo'limdan tashkil topgan ushbu tadqiqot to'plami muayyan nazariy masalalar bilan u yoki bu darajada bog'langan. "Badiiyat va nazariya" deb nomlangan birinchi bo'limdagi "Drama nazariyasi", "Mixail Baxtin kashfiyotlari", "Adabiyot nazariyasida "tayanch obyekt" masalasi" kabi maqolalarda mavzuga mos turli nazariy masalalar o'rganilsa, qolgan to'rtta maqolada Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr", "Layli va Majnun", "Hayrat ul-abror", umuman, "Xamsa" dostonining janri xronotop muammosi bilan bog'liq holda tadqiq etiladi.

Uzoq Jo'raqulovdramaning nazariy masalalarini yorituvchi maqolasida janr haqida jahon, rus va o'zbek olimlarining qarashlari tahlili asosida nazariy talqinlariga to'xtaladi. Muallif Suqrot, Aflotun, Arastu, Forobiy, Gegel, Belinskiy, Pospelev, Fitrat, Izzat Sulton, Abdurahmon Alimuhamedov, Mamajon Rahmonov va boshqa olimlarning drama nazariyasi, genezisi va tarixiy-madaniy omillari haqidagi kuzatishlarini tahlil qiladi, shu asosda o'z ilmiy-nazariy qarashlarini bayon etadi. Olim fikriga ko'ra, hozirgi o'zbek dramasi maydonga kelishida ikkita muhim omil bor: birinchisi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-tarixiy jarayonning natijasi sifatida O'rta Osiyo hududiga kirib kelgan antik Yunon teatr san'ati, hamda shu asosda XVII-XIX asrlar Yevropa adabiyotida o'zining taraqqiyot cho'qqisini egallagan Yevropa dramaturgiyasi turk, tatar, ozarbayjon, rus adabiy ta'siri vositasida o'zbek yozma professional dramasi yaratilishiga zamin bo'lgan. Shunga ko'ra, olim fikricha, o'zbek dramasi nazariyasi haqida so'z yuritilganda, Yevropa dramaturgiyasi bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni nazarda tutish lozim. Ayni paytda, milliy an'analar asosida yuzaga kelgan omillar sifatida folklor va mumtoz adabiyot tarkibidagi dramatik elementlarni ham e'tiborga olish lozim. Olim dramatik asarlarning sahna uchun mo'ljallab yozilishini e'tirof etgani

holda, uning nazariy asoslarini belgilashda faqat dramaturg yaratgan matn asos qilib olinishi zarurligini ta'kidlaydi. Dramatik asarlarni, ijtimoiy jihatdan naqadar ahamiyatli bo'lmasin, eng avvalo estetik hodisa deb bilgan muallif XX asr avvalida vujudga kelgan o'zbek dramaturgiyasining asosini adabiy-tarixiy jarayon an'analari – folklor, adabiyot tarixi va zamonaviy adabiyot elementlarining sintezidan hosil bo'lgan janr sifatida tadqiq etish lozim, deb hisoblaydi. Bu qarashlarini Fitrat, Hamza dramalari tahlili bilan asoslaydi. Har qanday asarga xos uchlik, ya'ni oshiq-ma'shuqa-raqib, do'st-do'st-raqib, yaxshi-yaxshi-yomon, ezgulik-ezgulik-yovuzlik shakl dramaga ham xosligi ta'kidlanib, bu konfliktning asosi esa ilohiy makon voqeligi bilan bog'lanadi. Ya'ni, raqib inson qiyofasidagi shaytondir, deydi olim. Muallifning ushbu fikri, ya'ni "ilk syujet"ning eng avvalo, ilohiy hodisa sifatida "Qur'oni karim"da nozil bo'lganligi haqidagi qarashlari boshqa tadqiqotlarida ham, jumladan, Alisher Navoiy asarlari tadqiqi-ning o'q ildizini tashkil etadi.

Darhaqiqat, yuqorida qayd etilgan tamoyillar asosida lingvopoetik tahlilni amalga oshirish tilshunoslik uchun kutilgan natijalarni berishi tabiiy. Tahlilga tortilgan har bir badiiy ijod mahsuli bo'lgan adabiy asarning lingvopoetik imkoniyatlari, emotsional-ekspressiv jihatdan mukammalligi uning asosini tashkil etuvchi badiiy tiliga qarab belgilanadi. Adabiy tilda mavjud bo'lgan lingvopoetik vositalar bir tomondan badiiy asar tilining ifodali va ta'sirchan, mantiqiy va uslubiy ravon bo'lishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan asarning badiiy-estetik qimmatini oshiradi, asar qahramonlarining ichki kechinmalari, ruhiyati tasvirini berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbektilshunosligidagi bir qator tilshunoslarning dramatism yo'nalishidagi badiiy matnni tahlil etish masalasidagi izlanishlari shuni ko'rsatadiki, ularning har biri lingvopoetik jihatdan o'z tadqiqot tamoyillariga ega. Bunda quyidagi tamoyillar nazarda tutiladi:

1. Dramatik asar tahlilining lingvistik metodologik tamoyili.
2. Dramatik asarlar tahlilida makon va zamon birligi tamoyili.

3. Dramatik asar tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili.

4. Dramatik asarlardagi poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyillari.

5. Dramatik matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili.

6. Dramatik asarda shakl va mazmun birligi tamoyili.

7. Dramatik asarni janr jihatidan o'rganish tamoyili.

8. Drama strukturasi o'rganish tamoyili.

9. Drama fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, morfologiyasi va sintaksisini tasniflash tamoyili.

10. Drama matni xos dialogik va monologik nutqni o'rganish tamoyili.

11. Dramatik asarda yozuvchi uslubini tekshirish tamoyili.

12. Dramatik asarda xalq og'zaki ijodi namunalarining qo'llanishini tahlil qilish tamoyili.

Dramatik asar tilibadiiy nutqning bir ko'rinishidir. Badiiy nutqni o'rganuvchi lingvopoetika yuqorida qayd etilganidek, til sistemasining barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Jumladan, fonetik-fonologik sathda fonetik birliklar, morfemik sathda morfemik birliklar, sintaktik sathda sintaktik birliklar ham badiiy-estetik funksiyalarini bajarishi mumkin. Xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo'g'inlarning, bir xil so'zlarning takrorlanishi she'riyatda go'zallikni, ta'sirchanlikni ta'minlovchi vosita sanaladi. Leksik sathda leksemalarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi esa har qanday dramatik asarlarda lingvopoetikaning tadqiqot usullaridan biri sanaladi. Zotan, lingvopoetik tadqiqot tamoyillari tilshunoslikka oid tahlillarni adabiyotshunoslik tahlili usullari tomon yo'naltiradi. Bu esa har qanday dramatik asar tadqiqi jarayonlarida o'z aksini topadi.

I bob bo'yicha xulosalar

Dramatik asarlar lingvopoetik tahlilining ilmiy va amaliy masalalari bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Mustaqillik va istiqlol boshqa fanlar qatori tilshunoslik ilmi taraqqiyoti uchun keng yo‘l ochib berdi. O‘zbek tilshunosligida zamonaviy talablariga javob beruvchi yangi sohalar, yo‘nalishlar yuzaga keldi. Bu o‘zbek tilshunosligini taraqqiyotining yangi pog‘onasiga ko‘tarilganligidan dalolat beradi. Bu esa badiiy matnlar lingvopoetik tahliliga bag‘ishlangan keng qamrovli ishlarning amalga oshirilganligida ham ko‘rinadi.

2. O‘tgan asrda o‘zbek va rus tilshunosligida yaratilgan ko‘plab tadqiqotlarda shaklni mazmundan ajratib qo‘yish, poetik stilistika va lingvistik stilistika deb chegaralab qo‘yishlar o‘zini oqlamadi. Keyingi yillarda lisoniy birliklar mohiyatini ochib berishda ko‘proq lingvopoetik tahlil tan olinmoqda. Lingvopoetik tahlilda masalaga faqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki umumfilologik jihatdan yondashiladi. Til birligining ham lisoniy xususiyatlari ham poetik matnni shakllantirishdagi imkoniyatlari hisobga olinadi.

3. Dramatik nutqning o‘ziga xos xususiyatlari lisoniy vositalarning matnda tutgan o‘rni va voqelanish imkoniyatlarini tadqiq qilish orqali ochib beriladi. U yoki bu sathga tegishli birliklarning matnda tutgan o‘rni, qo‘llanish imkoniyatlari ular bajaradigan badiiy-estetik vazifaga qarab belgilanadi.

4. Dramatik asarlar tahlilida bir qator umummetodologik, jumladan, qiyosiy, strukturaviy, vazifaviy tahlil tamoyillaridan foydalanish samaralidir.

5. Dramatik asarlar lingvopoetik tadqiqida ularning sahna uchun mo‘ljallab yozilishini e‘tiborga olgan holda, undagi sahnaviy detallarni ham inobatga olish joiz.

6. Dramatik asarlar tahlilida dialogik va monologik nutqni hamda yozuvchi uslubini, ularning bog‘liqligi hamda o‘ziga xosligi, har bir timsol nutqi, xatti-harakatiga ko‘ra tahlil qilinishini e‘tiborga olish lozim.

II BOB.MAQSUD SHAYXZODANING IJODIY FAOLIYATI VA DRAMALARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

2.1.Maqsud Shayxzodaning ijodiy faoliyati

Yigirmanchi asr o'zbek adabiyotining taniqli vakili, serqirra ijod sohibi Maqsud Shayxzoda 1908-yil Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topgan. Dastlabki ma'lumotni Oqtoshdagi maktabda olgan.U 1925-yildan boshlab muallimlik qilgan.Ayni vaqtda, Boku oliy pedagogika institutini sirdan o'qib bitirgan.

1925-yildamillatchisifatidaayblanib, ustidanjinoiyishqo'zg'atilgan, bo'lajakshoirKavkazortidanchiqarilibyuborilgan.Taqdir shoirni minglab tengqurlari singari hayot dengizining asov to'lqinlari qa`rigatashladi. Yigirma yoshida bu to'lqinlar uni qardosh O'zbekiston tuprog'iga keltirdi. Buyuk Navoiyning, Ulug'bekning muqaddas vatani Maqsud Shayxzodani o'z farzandidek mehribon quchog'iga oldi va uning ulkan shoirlik iste`dodiga qo'sh qanot baxsh etdi.

Maqsud Shayxzoda o'zbek tili va san`atini, o'zbek adabiyotini astoydil muhabbat bilan o'rgandi. Bu qadim, boy madaniyat chashmasidan bahramand bo'lib, ko'ngillarga quvonch bag'ishlovchi barkamol asarlar yaratdi.

Maqsud Shayxzoda ijodiyoti haqida adabiyotshunoslik va tanqidchilikda qator ishlar qilinganligini ta`kidlab o'tdik. Bular ichida filologiya fanlari doktori kandidatleri N.M.Mallayev, O.Sharafiddinov, H.Olimjonova, M.Zokirov singari olimlarning qator maqolalari va kitoblarida qilingan tahlillar ajralib turadi.

Professor N.M.Mallayev Maqsud Shayxzodaning ijodiy faoliyati haqida quyidagilarni ta`kidlaydi: "Maqsud Shayxzoda nihoyatda hozirjavob, chinakamiga xalq shoiri edi. U hayot poeziyasini chuqur his va idrok etar, voqelikning eng muhim jihatlarini tez payqab olar, o'zini doimo keng omma ichida ko'rar, xalqning turli toifalari bilan inoqlashib ketar, ular bilan til va dil topa olardi.

Darhaqiqat, shoir hayot qonuniyatlarini teran anglab, ularni badiiy hal qilishga intiluvchi so'z san`atkoridir.Uning she`riyati bilan tanishar ekanmiz, ularda ifodalanga qisqagina fikrda falsafiy lirikaning mohiyati ochilganday

ko'rinadi. Shoir she'rlaridagi ehtiros to'la baytlar va quyma misralar qalblarda chuqur iz qoldirib, ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. Shuning uchun ham, Maqsud Shayxzoda ijodi o'lmas. Uni inson ruhiy olamining to'laqonli, hamisha boyib mukammallashib boruvchi qomusidir, desak xato qilmaymiz. Bu qomusda oydin kechalarning rassomona tasviri, sevinch va qayg'u shiddatlari, kurash va yengish ilhomlari, kishilarning jasoratli ishlari - barchasi yuksak ijodiy mahorat bilan ko'zga tashlanib turadi. Shuning uchun ham adibning qalamidan bunyodga kelgan qutlug' adabiy obidalar o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin egallay bilgan. Bu fikrlarimizga ustozning ijodi to'la kafil.

Maqsud Shayxzoda nafaqat yetuk ijodkor, balki chuqur bilimli tadqiqotchi ham edi. Uning adabiyotshunoslik sohasida qilgan xizmatlari beqiyosdir. U 1935-1938-yillarda Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan umrining oxiriga qadar Nizomiy nomidagi pedagogika institutida "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" kafedrasi dotsenti, mudiri sifatida faoliyat olib borgan. Bu yillar mobaynida Maqsud Shayxzoda ijodiy ishlar bilan bir qatorda chuqur va jiddiy ilmiy tadqiqotlar ham yaratgan. Qanchadan-qancha tolib-u ilmlarga adabiyot sirlarini o'rgatgan. Ulug' olimning nazaridan adabiyotshunoslik, adabiyot tarixiga doir bir masala chetda qolmagan. Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyotining xalq og'zaki ijodidan tortib, zamonaviy adabiyotgacha bo'lgan davrini adabiy jarayon, tur va janrlar, badiiyat masalalarini atroflicha tadqiq qilgan.

Iste'dodli olimning mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy ijodiy merosi tadqiqiga bag'ishlangan ishlari haligacha o'z qiymatini yo'qotmagan. Ular o'zining ilmiyligi bilan ajralib turadi va bu bizga keng ma'lumot berib, tadqiq qilish usullarini o'rgatadi.

Dastlab, Maqsud Shayxzodaning xalq og'zaki ijodiga doir tadqiqotlariga e'tibor qaratib, uning folklorshunoslik faoliyati xususida fikr yuritsak.

Maqsud Shayxzoda qardosh xalqlar adabiyoti ukrain, belorus arman, gruzin, ozarbayjon, tojik, qozoq va qirg'izlarning ulkan ijodlari to'g'risida ham ilmiy maqolalar yozgan. Bu maqolalar Maqsud Shayxzoda adabiy-tanqidiy asarlarining 5-tomida "Qardosh xalqlar adabiyoti klassiklari haqida" nomli alohida bo'lim

sifatida kiritilgan. Bu bo'limda 1936-yil "Guliston" jurnalida chop etilgan "Isyonchi shoir – Taras Shevchenko", 1956-yil "Lenin uchquni" gazetasida chop etilgan "Atoqli xalq shoiri - Samad Vurg'un" kabi maqolalari va 1947-yil Nizomiy asarlaridan qilingan "Guldasta" tarjimasiga yozilgan Ilyos Yusuf Nizomiy to'g'risidagi so'zboshi o'z aksini topgan.

"Isyonchishoir"

maqolasida Maqsud Shayxzoda ukrain xalqiorasidanchiqqan vashu xalqning eng sevimi ikuychisi - baxshisi Taras Shevchenko haqida, uning hayotivaijodi, ukrain dehqonlari, ularning yashashtarzi, shoirning dvoryan adabiyotiga munosabatixususidabahsyuritadi.

Maqsud Shayxzoda

"Atoqli xalq shoiri"

maqolasida ozarbayjon xalqining sevimi shoiri Samad Vurgunning ahamiyati to'g'risida fikr yuritib, shoirning shoirlik iqtidori, she`riy to'plamlari, dramaturg sifatida olib borgan ishlar to'g'risidak eng ma`lumot beradi.

Maqsud Shayxzoda ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy hayoti va faoliyati xususida olib borgan ilmiy tadqiqotlari qardosh xalqlar adabiyotiga qo'shilgan ulkan hissa bo'ldi.

Ma`lumki, Nizomiy ozarbayjon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan. Maqsud Shayxzoda Nizomiyning hayoti va faoliyati haqida to'xtalar ekan, uning boy ijodiy merosi xususida alohida o'rin ajaratadi: U shunday yozadi: "Nizomiyning merosi oliymaqom va ulug'vordir. Nizomiyning dunyoga tanitgan narsa uning "Xamsa"sidir. Besh mustaqil dostonidan iborat bo'lgan bu monumental asar Sharqda xamsachilik janriga poydevor qo'ydi".

Olim maqolasida xamsachilik Yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyotida uzoq va murakkab tarixga ega bo'lgan bir adabiy an`ana ekanligini, Nizomiyning "Xamsa"si faqat ozarbayjon adabiyotidagina emas, balki Yaqin va O'rta Sharq o'lkalari adabiyotida ham yangi bob ochganligini qayd etadi.

Haqiqatan ham, Nizomiyning "Xamsa"si jahon adabiyoti, xususan, Sharq adabiyotining o'lmas yodgorligidir. Maqsud Shayxzoda ta`biri bilan aytganda, Nizomiy birinchi marta o'laroq badiiy mazmun poeziyaga yaqin yangi va betakror

syujetlarni kirgizdi. Nizomiy ulug' mahorat bilan kishi ruhining ichki dunyosini buyuk ruhshunos sifatida tahlil qildi. U o'rta asrlarning muzlim kechasida aql, insof, bilim, sevgi, halollik, to'g'rilik, vafo va mehnatning nuroniy mash'alini yoqdi. Shuning uchun ham Nizomiyning "Xamsa"si Sharq mamlakatlarida avloddan-avlodga yetib bordi, boshqa ijodkorlarga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazdi. Bu xususda Maqsud Shayxzoda shunday deydi: "Nizomiy dostonlari shu qadar ideal klassik namuna bo'lib qoldilarki, juda ko'p shoirlar unga ergashuvni o'zlariga farz deb bildilar. Sharqda yangi "Xamsa" yozay deb beshtadan doston yozgan shoirlarning soni yuzga borib yetdi".

Shuni aytib o'tish kerakki, har qanday besh doston ham "Xamsa" bo'la olmaydi. Bu dostonlar nomi, janri, vazni, syujeti, obrazlari va kompozitsiyasi bilan Nizomiyning dostonlariga monand bo'lishi va ayni zamonda Nizomiy "Xamsa"sining takrori yoki taqlidiy nusxasi emas, balki yangi, betakror xamsa bo'lishi, boshqacha aytganda, so'z san'ati taraqqiyotida yangi bir qadam, yangi pog'ona bo'lishi kerak edi. Bu juda murakkab va talabchan an'ana edi. Binobarin, o'nlab shoirlar Xamsa yaratgan bo'lsalar ham, ularning ko'pchiligi bu sohada muvaffaqiyat qozonolmadi, Nizomiy bilan ijodiy olishuvga bardosh berolmadi. Faqat uch shoirgina ulug' xamsanavis bo'lib, Nizomiy qatoridan o'rin olishga muyassar bo'ldi. Bular ulug' hind shoiri Xusrav Dehlaviy, ulug' fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy, ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiydir.

Maqsud Shayxzoda o'z tadqiqotida ulug' o'zbek mutaffakkiri Alisher Navoiyning Nizomiy Ganjaviy ganjinasidan bebaho durlarni qo'lga kiritgani xususida ham to'xtalib o'tadi va "...shubhasiz, Nizomiyning buyuk merosidan ilhom olgan va undan ijodiy-tanqidiy ravishda bahramand bo'lgan buyuk shoirimiz Alisher Navoiydir. Uning barcha dostonlarida va asarlarining ko'pchiligida Nizomiy sha'niga mutashakkurona madhiyalar va ehtiromli misralarni o'qiyimiz. Chunonchi, "Hayrat ul-abror"ning kirish qismida shu oliy bahsni ko'ramiz.

Ganja Vatan, ko'ngli oning ganj xez,

Xotiri ganjuri tili ganjrez.

Kaffal mezon anga aflak ulub,

*Botmoni toshi kurai xok o'lib,
Tortsa yuz qarn xirad xozini
Chekmagay oning ko'pidan ozini.
Nozim o'lub so'z duri serobig'a
Charx "Nizomiy" yozib alqobig'a.*

Xullas, Maqsud Shayxzoda o'zining "Taras Shevchenko" (1936), "Shota Rustaveli" haqida (1938), "Zamonamizning ulug' shoiri jambul jabay o'g'li" (1946), "Shayx Ilyos Nizomiy Ganjaviy" (1940) kabi maqolalari bilan o'zbek kitobxonlarini qardosh adabiyot vakillarining hayoti va ijodi bilan tanishtirdi. Bundan tashqari, Maqsud Shayxzoda qardosh xalqlar adabiyoti namunalarini o'zbek tiliga muvaffaqiyat bilan tarjima qilgan. Shota Rustavelining "Yo'lbars terisi yopingan pahlavon" (Shoir Mirtemir bilan hamkorlikda) dostoni, Nizomiy Ganjaviy va Fuzuliyning lirik she'r va manzumalarini, Mirzo Fatali Oxundovning falsafiy qissalari, Taras Shevchenkoning "Kavkaz" dostoni va "Gaydamaklar"i (parcha), Jambul Jabayev, ozarbayjon shoirlari Samad Vurgun, Sulaymon Rustam, arman shoiri Avetik Isakyaning o'zbekchaga tarjima etilgan asarlari shular jumlasidandir.

Maqsud Shayxzoda ilmiy faoliyatiga nazar solar ekanmiz, uning adabiyotimizning turli yo'nalishlarida izlanishlar olib borganini kuzatamiz. O'zining olimona iqtidori, o'tkir fahm-farosati bilan Maqsud Shayxzoda folklorshunoslik, mumtoz davr, qardosh xalqlar adabiyoti, zamonaviy adabiyot va olgan. har bir davrning adiblari, ularning ijodiyoti xususida salmoqli fikrlar ayta Olim ilgari surgan fikr-mulohaza va xulosalar keyinchalik rivojlantirilib, yaxshi-yaxshi tadqiqotlar yuzaga kelgandir. Umuman, adabiyotshunoslikda, xususan, mumtoz davr adabiyotini tekshirishda Maqsud Shayxzodaning o'z uslubi bo'lganki, hozirda ham deyarli ko'pchilik olimlar shu uslubda ergashib izlanishlar olib boradi. Bu esa Maqsud Shayxzoda dahosining ilmda o'z o'rni va darajasiga ega bo'lgan olimligidan dalolatdir.

Olimning Firdavsiy, Nizomiy, Shayx Sa'diy, Hofiz Bedil, Fuzuliy, Mashrab,
Muqimiy, Furqat,

Hamza Hakimzoda Niyoziyvaboshqak klassik shoirlari ijodida chuqurtadqiqotlar olib borganima`lum.

Alisher Navoiy va Nizomiy, Bobur va Boburiylar, Shota Rustaveli va Pushkin, Mayakovskiy va Gorkiy, S. Ayniy va Oybek - Maqsud Shayxzoda uchun bu siymolarning har biri u o'rganishi, o'qishi kerak bo'lgan yangi kitob, go'yo olim ularning mahorati, asarlarining til kompozitsiyasini o'rganadi, ular haqida bir kitob xonsifatidagina emas, olim sifatida ham fikr yuritadi.

Bu asarlarning mohiyatini anglagani, ruhiga kira olgani uchun ham ular haqida fikr yuritish noyob fikr egasi bo'lgan Maqsud Shayxzodaga qiyin emas edi. Maqsud Shayxzodaning bizga meros bo'lib qolgan ikki yuz ellikdan ortiq katta-kichik maqolalari o'ziga xos ijodiy mehnatning samarasidir.

Maqsud Shayxzodaning "Zahiriddin Bobur" (1937), "Vatan gulzorining o'tli bulbuli" (1948), "Furqat haqida qaydlar" (1958), "Furqatda Vatan" hamda olim ilmiy faoliyatining yuksak pillapoyasi – Alisher Navoiyning oliymaqom ijodi va mislsiz she`riy san`ati haqida yaratgan ilmiy asarlari fikrimizning dalilidir.

Maqsud Shayxzoda mumtoz adabiyot ustida tadqiqotlar olib borar ekan, o'zbek mumtoz adabiyoti o'ziga xos tarixiy-madaniy muhitda, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyoti bilan aloqada o'sganligi, rivojlanganligini aytib o'tadi. O'zbek mumtoz adabiyoti asarlarini nazariy jihatdan yoritishda, jumladan, janr jihatdan tasnif qilishda "Sharq adabiyotshunosligi", "Ilmi adabi" va uning uch nazariy tarkibi – "Ilmi aruz", "Ilmi bade'", "Ilmi qofiya" hamda adabiyotshunoslikning boshqa sohalari katta salohiyatga ega ekanligini alohida ta`kidlaydi. Adabiyotshunos olim o'zbek mumtoz adabiyoti masalalarini badiya va janrlarni o'rganar ekan, bu borada Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyos ekanligini aytib o'tadi. Bu haqda u shunday deydi: "Alisher Navoiyning jihatlari beqiyos ekanligining o'zi ham she`riyatning nanazriyasi, adabiyot, tarix - o'zbek she`riyatidagi vaznlar va ayrim shoirlarning adabiy salmog'i bilan bevosita shug'ullanib turganki, "Mezonul-avzon", "Majolis un-nafois", "Munshaot", "Muhokamatul-lug'atayn" hamda "Chordevon"ga kirgan ikkita "Debocha"si bu fikrimizning yaqqol dalili bo'la olur.

Haqiqatan ham, yuqorida nomi zikr etilgan asarlar Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlarini, o'rganishga birinchi manba bo'lib xizmat qila oladi. Maqsud Shayxzoda esa buni o'z davridayoq anglay olgan va bu qarash keyinchalik shu mavzu doirasida chuqur tadqiqotlar yaratilishiga turtki bo'lgan, deyish mumkin.

Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri, atoqli shoir va davlat arbobidir. Maqsud Shayxzoda ta'biri bilan aytganda, u "kurashchan ruh", - ya'ni Bobur yuksak muvaffaqiyatsizliklarning mayda muvaffaqiyatlardan ko'ra naqadar oliy ekanini anglagan va hayotning mashaqqatli onlarida ham kurash irodasidan qaytmagan shaxs edi.

Maqsud Shayxzoda Boburning mashaqqatli hayot yo'li haqida to'xtalar ekan, uning ijodi ustida ham alohida tadqiqotlar olib boradi. Xususan, Bobur Mirzo adib va shoir bo'lish jihatidan o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rin tutishi, uning bizga ma'lum asarlari:

- 1) "Boburnoma";
- 2) Turkiston va Afg'onistonda yozgan yirik she'rlar devoni;
- 3) Masnaviy tarzida yozilgan "Mubayyin" asari;
- 4) Ubaydullaxo'janing "Volidiya" nomli asarining nazm bilan tarjimasi;
- 5) "Mufassal";

6) "Xatti Boburiy" asarlarini sanab o'tib, shoirning "Boburnoma" asariga alohida to'xtaladi: "Bobur Mirzoning asarlari o'rtasida "Boburnoma" mustasno ahamiyatga egadir. Bu asarni uning shoh asarni desak bo'ladi.

Bobur lirikasi bilan tanishar ekanmiz, uning mavzu jihatidan boy va xilmaxil ekanligining guvohi bo'lamiz. Bu haqda Maqsud Shayxzoda shunday deydi: "Bobur poeziyasi hamma narsadan avval zo'r samimiyat bilan kuylangan poeziyadir. U turmushdagi yutuqlarini katta sevinish bilan kuylagani holda, mag'lubiyat va xatolarni ham uyalmasdan iqror qiladi va ularni yumshoq alamlar bilan mungraydi. Quyidagi ruboiy Bobur hayotida va binobarin uning qalbida bir-biriga qarama-qarshi voqealar va ruhiy kechinmalarning yuz berganini ko'rsatadi:

Hijron g'amidin zaif jonim so'ldi,

G'urbat alami birla ichim qon to'ldi.

Yuz shukurki, muncha yilgi g'am birla alam,

Rohat bila ishratg'a mubaddal bo'ldi.

Bobur o'zining lirik she'rlari bilan o'zbek mumtoz she'riyatini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi, jahon adabiyoti xazinasini o'lmas durdonalar bilan boyitdi.

Maqsud Shayxzodaning 1943-yilda yozgan "Vatan gulzorining o'tli bulbuli" maqolasi o'zbek demokratik adabiyotining taniqli vakili Muqimiy haqida yozilganidir.

Shayxzoda maqolani Muqimiyning "Muqimiy, qaysi gul ishqida mundog' o'tli bulbuldek fig'on qilding" misrasi bilan boshlaydi.

"Qaysi gul ishqida?" Maqsud Shayxzoda o'ziga ana shunday savol berib javobini ham keltiradi: "Navoiyning murakkab tuyg'ularga boy bo'lgan ishqidan, Boburning shohona umidvor sevgisidan, Fuzuliyning darveshona dardidan, Amir Umarxonning amirona va ixloskor muhabbatidan bahralar olgan Muqimiy to'la ma'nosi bilan oshiq-shoir va shoir-oshiq edi.

Maqsud Shayxzodaning 1958-yilda yozilgan "Furqat va Muqimiy haqida maqolalar" kitobidagi "Furqat haqida qaydlar" ilmiy maqolasi ham o'zbek mumtoz adabiyotiga qo'shilgan ulkan xizmatlardan biridir.

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti tarixida Furqat birinchi bo'lib "teatr" atamasini tilga olganini, teatrning katta ijtimoiy, ma'rifiy, tarbiyaviy hamda badiiy ahamiyatini qayd qilib, o'zi ham ilk daf'a dramatik janrlarga yaqin manzuma yozganini ta'kidlab o'tadi.

Umuman, Maqsud Shayxzoda Furqat ijodiyotini o'rganar ekan, u qoldirgan ijodiy merosning ahamiyatini ochib bleradi va Furqatning ijodi orqali o'sha davr tarixiy ahvoli, xalq turmushi, orzu-istagini o'rganish mumkinligini isbotlab beradi.

Maqsud Shayxzoda har bir adabiy hodisani tahlil etar ekan, uni shunchaki tadqiq etmaydi, balki o'sha tadqiq etilayotgan asarning yuzaga kelish omillari, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, mazmun-mohiyatini turli jihatdan yetarlicha o'rganadi va o'z fikrini ilmiy ravishda asoslaydi.

Bugun ham adabiyotshunoslik ilmida, albatta, Maqsud Shayxzoda uslubidan borish katta natijalarga olib keladi va belgilangan mavzuni to'g'ri, aniq yoritish yo'lini o'rgatadi deyish mumkin.

Navoiyshunos olimlarimizdan biri Maqsud Shayxzoda qariyb 30 yil (1939-1967) mobaynida ulug' mutafakkir ijodi ustida ishlab, yigirma beshga yaqin adabiy-tanqidiy maqola va monografik xarakterdagi tadqiqotlar yaratdi. Ular asosan, "Navoiy adabiy merosi haqida" (1939), "Navoiy va Bobur" (1939), "Navoiyda adlu insof masalasi" (1941), "Genial shoir" (1941), "Navoiyda lirik qahramonning xarakteristikasiga doir" (1947), "Yuksak g'oyalar va chuqur tuyg'ular kuychisi" (1948), "Klassik adabiyotimizning ulug' siymosi" (1948), "Navoiyning ilk dostoni", "Hayrat ul-abror haqida" (1958), "Ustodning san`atxonasida (to'rt maqola, 1965-1966) va "G'azal mulkingning sultoni" (1966) va boshqalardir.

"Navoiy ijodi shunday ulug' bir dengizki, undan har kim o'z kosasigayarasha bahramand bo'ladi", deguvchi Maqsud Shayxzoda ulug' mutafakkir merosini o'rganish murakkab, g'oyat mas`uliyatli va sermehnat ish ekanligini chuqur his qildi. Navoiy ijodi haqidagi qaysi bir masala qo'lga olinmasin, Maqsud Shayxzoda ularga qat`iy ilmiy-tarixiy nuqtai nazardan yondoshadi, izchil va muayyan tadqiqiy tamoyilga amal qildi.

Alisher Navoiy mavzui Maqsud Shayxzoda adabiy faoliyatida markaziy o'rinlardan birini egallaydi, desak xato bo'lmaydi. U serqirra ijodkor sifatida Alisher Navoiy adabiy merosiga zo'r ehtiros, katta qiziqish bilan munosabatda bo'lgan. Ulug' mutafakkir shoir asarlari xususida Maqsud Shayxzoda shunday deydi: "Navoiyning asarlari bizga katta xizmat ko'rsata oldi. Navoiyning ishlash uslubi, mehnatni uyushtira bilishi, tarix oldida, xalq oldida va o'z vijdoni oldida mas`uliyat sezishi, asarlarning chuqur g'oyaviyligi, har bir misra ustida zargar singari puxta ishlashi va boshqalar yosh yozuvchilar uchun o'rnak bo'la olur".

Maqsud Shayxzoda siymosida Alisher Navoiy adabiy merosining yetuk targ'ibotchisi namoyon bo'ladi. Sh. Shoabdurahmonovning Maqsud Shayxzoda haqidagi xotiralarida shunday jumlar bor: "Maqsud Shayxzoda saboqlaridan men

va kursdoshlarim mumtoz adabiyotimizni, ayniqsa, keyinchalik o'zi "G'azal mulkining sultoni" deb atagan buyuk Alisher Navoiy ijodini undan birinchi marotaba o'rgangan edik, o'rganganda ham to'laligi, mufassalligi bilan o'rgangan edik.

Maqsud Shayxzoda Navoiy lirik merosini o'rganishga alohida e'tibor bilan qaradi. Navoiyshunoslarimiz oldida turgan eng muhim vazifa : Navoiyning lirik qahramonidagi boy ma'naviyatni belgilash, so'ngra lirik qahramonning xarakterini ochishda shoir tomonidan qo'llangan tipik priyomlarni aniqlash" ekanligini alohida ta'kidlab ko'rsatdi. Bu borada barakali ilmiy talqiqot ishlari olib bordi. Nihoyat, 1965-yildan boshlab Navoiyning lirikasiga bag'ishlangan "Ustodning san'atxonasida" katta monografik kitobining dastlabki boblarini e'lon qilishga kirishdi. Muallif bu asarida Navoiy she'riy san'atini oziqlantirgan, Sharq klassik lirikasining asosiy mag'zini tashkil etgan "Ilmi aruz", "Ilmi bade'", "Ilmi qofiya" muallif ta'biri bilan aytganda, "bilimlar o'chog'i"ning tarixi, ta'rifi va xususiyatlari haqida mufassal to'xtab, asosiy diqqat-e'tiborni "Ilmi bade'"ga qaratdi.

"Masalaning mag'zi shundaki, – deydi Maqsud Shayxzoda,– Alisher Navoiy o'z poetik ijodini faqat ilhom va tuyg'u omillariga rom qilmasdan, o'z zamonasining adabiyot, qoida va nazariyalariga "Ilmi bade'" usullariga rioya qilib yaratgan. To'la qanoat bilan aytish mumkinki, muallif o'z oldiga qo'ygan murakkab va qiyin ilmiy vazifani bajarishga muvaffaq bo'lolgan.

Maqsud Shayxzoda birinchi bo'lib Navoiyni "G'azal mulkining sultoni" deb ta'riflagan va bu iborani ilmga olib kirgan olimdir. Zahmatkash olim Alisher Navoiyning lirik merosini o'rganar ekan, ulug' shoir – Navoiy o'zining buyuk iste'dodini, asl dahosini bilim, g'ayrat va tajribasini ulug' niyatlar xizmatiga qo'ygani, poeziyani kishilik jamiyatining zaruriy bir ehtiyojiday bilganini e'tirof etib shunday yozadi: "Uning (Navoiyning) zarbulmasalga aylanib ketgan ta'birlari, baytlari, misralari inson, xalq, bashariyat haqidagi g'amxo'rliqi, adolat, insof va to'g'rilik yo'lida olib borgan tinimsiz kurashi bu xassos yurakda naqadar zo'r muhabbat qaynaganiga, bu yorqin manglay miyada naqadar oliy fikrlar va g'oyalar javlon urganiga shohiddir.

Maqsud Shayxzoda Navoiy she`riyatini so'zlarni ipga tizib, xalqning bahrasi uchun ma`nolar xazinasidan terilgan gavharlar deb biladi va ularni shaklan puxta yuksak mazmunli asar sifatida baholaydi. Ulug' mutafakkir ijodiyotining muxlisi bo'lgan olim uning lirikasiga alohida ixlos va ikrom ko'rsatadi. "Xazoyinul - maoniy"ni obrazli qilib aytganda, bir qalbning tarjimai holi, - deydi. "Bu qalb shunday bir xassos va badavlat yurakligini asrning hech bir hodisasi, zamonaning hech bir muammosi, jamiyatning hech bir voqeasi kishilarning hech bir davr, sevinchi va orzusi unda iz qoldirmay, uni chetlab o'tib ketolmaganligini ta`kidlaydi. Navoiyning lirik asarlari birinchi navbatda g'azallari, mustahzodlari va qit`alari hali shoir hayotligidayoq katta shuhrat topganini, bu she`rlarning ovozi Turkiston, Hijoz, Nishopur, Isfahon, Ajamiston, Iroq tomonlariga borib yetganini tarixiy manbalar asosida ilmiy dalillab beradi.

Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiy lirikasining ba`zi bir poetik usullari haqida ("G'aroyibus-sig'ar" devoni bo'yicha) maxsus izlanish olib borar ekan, devon Sharq mumtoz adabiyotining deyarli barcha lirik janrlarini o'z ichiga olganligini qayd etadi va o'zi e`tirof etgan "Deyarli" so'ziga izoh kiritib, shunday yozadi: "...devonda g'azal, ruboiy, hikmat, marsiya, faxriya, bahoriya, mutoyiba, soqiynoma, fard, qit`a, munojot, na`t, tarkibband, tarji`band, murabba, muxammas, musaddas, musamman kabi turlarni ko'rganimiz holda Sharq devonlariga odatda kiritilib turgan qasida yoki madhiya yoxud ithof ruhida (tuhfa tarzida) yozilgan alohida she`rlarni ko'rmaymiz. Shu sabab olim "deyarli" so'zini qo'llagan. Demak, bundan shu narsa ayon bo'layotirki, Shayxzoda har bir fikrini tarozida o'lchab ko'radigan, bir tomonlama, zo'rma-zo'raki tahlillardan yiroq, taxminiy va xayoliy faktlar emas, aniq va ilmiy dalillarga suyanib ish ko'radigan mohir va zukko olim bo'lgan.

Navoiyshunoslikning murakkab masalalaridan biri ulug' shoirning she`riy merosini davrlashtirishdir. Bu masalaga birinchi bo'lib 1940-yillarda navoiyshunos olim Maqsud Shayxzoda e`tibor qilgan. U "Xazoyinul-maoniy"ga kirgan to'rt devon ("G'aroyibus-sig'ar" – Bolalik g'aroyibotlari", "Navodirush-shabob" – Yigitlik nodirliklari", "Badoe`ul-vasot" – "O'rta yosh badialari", "Favoidul-kibor"

– "Keksalik foydalari") kishi umri faollariga qarab nomlanganini g'oyat shartli deb baholagan lirik Maqsud Shayxzoda "Navoiyning lirik qahramoni haqida" degan maqolasida "G'aroyibus-sig'ar"dagi:

Kechti umrum naqdi g'aflat birla nodonlikda, hayf –

Qolg'oni sarf o'ldi anduhu pushaymonlikda hayf.

matlasi bilan boshlangan g'azalning birinchi devondan joy olganini, uni aslo bolalikda yozilgan she`rlar sirasiga kiritish mumkin emasligini ta`kidlagan. Shu bilan birga, Maqsud Shayxzoda shoirning "G'aroyibus-alg'or" devoni ustida tadqiqotlar olib borar ekan, bu Devonning asosiy qismini g'azallar tashkil etishini aytib o'tadi.

Shayxzoda Navoiyning ichki kechinmalarini lug'at kitobi deydi. Ayni chog'da Navoiyning sevgi lirikasi oshiq va ma`shuqaning ishqiy kayfiyatlari darajasidan yuqori ko'tarilib, keng ijtimoiy-falsafiy mohiyat kasb etishga alohida to'xtaladi. Navoiy sevgi mavzusi orqali hayotga, insonga muhabbatni kuylashini, badbinlik va tarkidunyochilikka qarshi kurashib, yashagan muhitining ayrim illatlarini fosh etishi, olijanob insoniy fazilatlarni targ'ib qilishini tadqiq qiladi va shoir g'azallarini g'oyaviy-mavzuviy jihatdan shartli ravishda uch qismga bo'lgan:

1. Oshiqona g'azallar.
2. Rindona g'azallar.
3. Orifona g'azallar.

1966-yilda yozilgan "G'azal mulking sultoni" maqolasida shunday deyiladi: "Alisher Navoiy dunyo adabiyotiga eng ko'p g'azal yaratgan liriklardan hisoblanadi. Lekin to'rt devonni tashkil etayotgan lirik asarlar (90 foizi g'azal)da siz bironta sharoitga moslanish, xushomad ruhida baytlar to'qish, dunyodorlarga ta`zim qilish holatlarini ko'rmaysiz. Navoiy g'azalni vijdoniy burch ma`nosida tushunganidan, jamoatchi bo'lganidan, undagi eng nozik va eng intim sezgilarning ham tagida haqqoniy va mantiqiy bir hodisa yotadi. Bu jihatdan olganimizda uning o'n minglab g'azallari sodiq sipohlardek g'azalxon dilining biron nuqtasini egallab olib hamisha shoir bilan inson o'rtasida magnit qudratiday bir ijodiy rag'bat saqlab

turmoqda. Shoirning shu nodir qudratni e'tiborga olib, meni uni g'azal mulking sultoni deb ta'rifladim".

Xullas, Maqsud Shayxzoda o'ta teran bilimli va donishmand adabiyotshunos edi. U Nizomiy va Navoiy, Lutfiy va Jomiy, Pushkin va Tolstoy, Gorkiy va Mayakovskiy merosini sidqidildan sevardi va ardoqlardi. U o'zining chuqur ilmiy tadqiqotlari bilan adabiyotshunosligimiz, madaniyatimiz tarixida, xalqimiz qalbida o'chmas iz qoldirib ketdi. Shoir she'rlarining birida o'z xalqiga, vatandoshlariga murojaat qilib shunday degan edi:

Yo'q, men o'lgan emasman! Yo'q, men o'lgan emasman!

Umrim buyuk piyola, hali to'lgan emasman,

Men yashayman bolamda, ekib qo'ygan dlamda!

Dami sinmas qilichda, uchi o'chmas qalamda!

Bu hayajonli satrlar haqli ravishda otashin shoirning o'z hayotiga, uning ijodiga to'la taalluqlidir. Haqiqatan ham, shoirning umri, ijodi - buyuk piyola. Buloqdan suv olganing bilan unda suv kamaymaganday, Maqsud Shayxzodaning ijod piyolasi yuz yil, yuz yil ijod qilsa ham to'lmas edi. Uning ijodiy rejalari, orzulari, "yozuvchining fikrini va dilini hamisha yashnatuvchi o'lmas hamrohlari" ko'p edi. Maqsud Shayxzoda ijodi - uning yuragi, hayoti doimo kuy istar, kuylab turar, qalam istar, yaratish zavqi bilan hayot edi.

2.2. Muallif okkozanalizmlarining lingvopoetik tabiati va vazifasi

Maqsud Shayxzoda - o'zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, mashhur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimonidir. Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, xususan,

Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasidagi ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi. Ammo eng avvalo buyuk shoir edi. Adibning asarlari ko'plab qardosh va xorijiy xalqlar tillariga tarjima qilingan. Tarjimonlik sohasida ham Shayxzoda Pushkinning "Mis chavandoz", Lermontovning "Kavkaz asiri", Mayakovskiyning "Juda soz" dostonlari va ko'plab she'rlarini, Shekspirning "Hamlet", "Romeo va Julyetta" tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she'rlarini, ozarbayjon shoirlari asarlarini o'zbek tiliga o'girdi.

Maqsud Shayxzoda ijodiy faoliyatida kelgan bir misra she'rdan tartib dostongacha, balladadan tortib she'riy dramalarga qadar barcha asarlarda falsafiy mushohadaning teranligi, qo'yilgan muammoni yechishdagi mantiqiy izchillik, tuyg'ularning samimiyligi, fikrning parvozi va uslubning muayyanligi kabi a'lo xislat va noyob fazilatlarini tufayli o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shoir inson ruhini tarbiyalash, odamda yaxshilik unsurlarini ko'paytirish, xalqqa go'zallik va nafosat tuyg'usini yanada baland darajada ko'tarishni san'atning muqaddas vazifasi deb biladi va bu muqaddas vazifaga o'rtoqlari qatorida o'zi ham bir qatra hissa qo'shgan bo'lsa, demak, dunyoda behud yashamabman deb hisoblaydi.

Maqsud Shayxzoda qoldirgan merosni elimizning badiiy tarixi, adabiy qomusi, mujassam lirik yonishi deyish mumkin. Ana shu ijod sahifalarini birma-bir varaqlar ekanmiz, ilhom parisi Maqsud Shayxzodaga hamisha sirdosh, oshno bo'lganligiga amin bo'lamiz. Darhaqiqat, shoir muttasil ijodiy mehnat dardi va izlanish zahmati bilan umr kechirdi. Uning ta'biricha:

Kunlarimni oldim yelkaga,

Bordim karvon bilan yo'limdan.

Kunlar ortdi, uzaydi bo'yim,

Soz suhbatim mavzusi emas,

Kishilikdir o'ylagan o'yim, – degan g'oyalari uning butun ijodiy faoliyati uchun asosiy mezon bo'ldi. Maqsud Shayxzoda she'riyati, dostonlari, uning dramatik va ilmiy asarlari yozilgan. Lekin, bizningcha, yozuvchi asarlari, uning

ijodi haqida yana ham aniqroq va kengroq tasavvur beruvchi tanqidchi va tadqiqotchi bu yozuvchining o'zi bo'lsa kerak.

Uning ijodi 40-yillarda, Ikkinchi jahon urushi davrlarida ayniqsa avj pardalarga ko'tarildi (ayniqsa, rivojlandi). Butun insoniyatga tahdid solayotgan fashizmni yo'q qilish, hayotni, tiriklikni, shon-u sharafni (tinchlikni) saqlash, xalqni ruhan yengilmaslikka, matonatga da'vat etish shoirning o'sha yillari chop etilgan «Kurash nechun», «Jang va qo'shiq», «Kapitan Gastello», «Ko'ngil deydiki» kabi to'plamlarining bosh mavzusi bo'ldi. Shu yillarda Shayxzoda yana bir mumtoz namunasi «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy dramasi yaratildi. Biz tariximiz to'g'risidagi hikoyalardan yaxshi bilasizki, o'lkamizni XIII asrlarda Chingizxon qo'shinlari bosib olmoqchi bo'lganida, xalqimizning mard o'g'lonlaridan Jaloliddin Manguberdi dushmanga qarshi qattiq kurash olib boradi va o'z vatani mustaqilligini saqlash uchun mardonavor turib jang qiladi. Mana shu tarixiy shaxs siymosi va shonli o'tmish sahifalarini badiiy haqqoniylik bilan tasvirlash «Jaloliddin Manguberdi» dramasi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Pyesa Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatrida (hozirgi o'zbek Milliy akademik drama teatri) sahnalashtiriladi. Botir lashkarboshi Jaloliddin siymosini sahnaga buyuk aktyor Shukur Burhonov olib chiqadi.

Shayxzoda urushdan keyingi yillar tinch hayot va yaratuvchilik zavqini tarannum (kuylagan she'rlardan) etgan she'rlardan iborat «o'n besh yilning daftari», «Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu'la», «Chorak asr devoni» kabi to'plamlarini nashr ettiradi. 1957-yili qadim poytaxtimiz Toshkent haqida teran falsafiy va nihoyatda ehtirosli tuyg'ularga boy «Toshkentnoma» dostonini yozadi. Tarixiy mavzulardagi izlanishlarini davom ettirib 1960-yilda «Mirzo Ulug'bek» tragediyasini yaratadi. Bu asar o'zbek dramaturgiyasi rivojida juda katta o'rin tutadigan pyesadir. Asarda Buyuk bobokalonimiz, dunyo falakshunos olimlari ichida e'tirof topgan, ulug' Amir Temurdan so'ng temuriylar nasabini olamga tanitgan Mirzo Ulug'bek siymosi asarda muhabbat va ulug'vorlik bilan tasvir etiladi. Uning inson va shoh, shoh va olim, ota sifatidagi siymosi falsafiy (badiiy

teranlikda) teranlikda, badiiy baquvvat she'riy satrlarda ochib beriladi. Bu obrazni ham Shukur Burhonov katta mahorat bilan ijro etgan.

Bizningtahlilga tortgan masala aynan mana shu dramalar haqida. "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" tarixiy dramalarining lingvopoetik masalasi-dagi tahlil va tavsiflarga qaratilgan.

Til doimiy ravishda yangi lug'aviy birliklar hisobiga boyib boradi. Hech bir so'z kommunikativ ehtiyojsiz tug'ilmaydi. Ammo yangi paydo bo'lgan so'zlar tildagi mavqeiga ko'ra farqlanadi. Har qanday yangi paydo bo'lgan lisoniy birliklar til tizimida o'z o'rniga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin. Lug'at tarkibida o'z o'rniga ega bo'lmasdan yakka (individual) nutqqa xos va o'sha nutq (matn) doirasidagina qolib ketadigan, tasodifiy, ya'ni favqulodda yaratilgan va ko'pincha lisoniy aloqa jarayonida atigi bir martagina qo'llanadigan so'zlar borki, ular hamisha yangiligi, g'ayritabiiy tuyulishi, betakrorligi, adabiy normadan tashqarida bo'lishi bilan ajralib turadi. Bunday so'zlarni xalq va til ijodkorlari yaratadi. Xalq yaratgan so'zlar tilshunoslikda og'zaki nutq okkazionalizmi, ma'lum ijodkorlartomonidan yaratilgan so'zlar esa individual – yakka nutqqa xos, ya'ni **badiiyokkazionalizmlar** deb yuritiladi.

Okkazional so'zlar so'zlovchi yoki ijodkorlar tomonidan o'z fikr va maqsadini o'ziga xos tarzda va aniq ifodalash, o'zlari tasvirlayotgan biror shaxs, narsa, obyekt, voqea-hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan bo'lgan o'z munosabati, ya'ni his-tuyg'ularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi va qo'llanadi. Okkazionalizmlar tasvir obyektini tavsiflashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlantira olmaganda yaratiladi.

So'zning tug'ilishi, yaratilish jarayoni bilan tanishish qiziq va muammoli ma'lumotlar beradi. Rus tilshunosligida bu masalaga V.V.Lopatinning "Rojdenie slova" nomli monografiyasi bag'ishlangan bo'lib, unda okkazionalizmlarning yaratilishiga ham katta e'tibor berilgan. Tadqiqotchi monografiyaning II bobida to'laligicha shu muammoni yoritadi. U bunday tasodifiy so'zlarni atash haqida to'xtalib, shunday deydi: "Bunday so'zlarga nisbatan "neologizm" terminini qo'llash to'g'ri bo'lmaydi. Ko'pgina tilshunoslar ularni boshqacha atash to'g'risida

fikr bildiradilar. Bunday soʻzlarga nisbatan ishlatiladigan, koʻp tarqalgan termin okkazional soʻzlar yoki okkazionalizmlardir (lotincha occasio - tasodif). Biz hamshu termindan foydalanamiz.”²⁰

Q.Samadov, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Choriev, B.Yoriev M.Mirtojiev, L.Abdullaeva, S.Karimov kabilar oʻz tadqiqotlarida maʼlum bir ijodkorning soʻz qoʻllash mahorati masalasida okkazionalizmlarning oʻrni va rolini qayd etib oʻtgan boʻlsalar-da, uning leksik va badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilingan monografik ish oʻzbek tilshunosligida hali yaratilmagan.

B.Umurqulov okkazional soʻzlarni ijodkorning oʻziga xos uslubini belgilovchi omillardan biri sifatida talqin etadi²¹.

Okkazional soʻzlar va ularning adabiy normaga munosabati A.Mamatov tomonidan chuqur oʻrganildi. Olim asosiy eʼtiborni lingvistik norma muammosini hal etishga qaratar ekan, “nonormal”, “noqonuniy” boʻlgan okkazional soʻzlar va iboralarga xos belgilarni misollar asosida tahlil qilib beradi²².

Tadqiqotchi S.Moʻminov ham neologizm va okkazionalizmlarning xususiyatlarini qiyoslab, oʻziga xos boʻlgan farqli tomonlar haqida oʻz qarashlarini bayon qiladi. Okkazional soʻzlar xotirlanmaydigan xossagagina emas, balki qoʻllanishjihatidan bir martalik va sinxron-diaxron qorishqlik xossasiga ham egadir.

Okkazionalizmlar bir marta qoʻllanishi va oʻta taʼsirchanligi, obraz yaratishda nihoyatda qulayligi bilan til birliklaridan farqlanib turadi. Okkazional soʻzlarning oʻziga xos vazifalari, xususiyatlari mavjudki, ular oʻzbek tilshunosligida hali yetarli ravishda tadqiq qilingan emas. Toʻgʻri, okkazional soʻzlar haqida oʻzbek tilshunosligida anchagina fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, S.Toshalievanning oʻzbek tilida okkazional soʻzlarning yasalishiga oid izlanishlari diqqatga molikdir. Lekin lugʻaviy okkazionalizm maxsus tadqiqot obyekti qilib

²⁰ www.ziyounet.uz

²¹ Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Т.: Фан, 1990; Ўша муаллиф. Бадий адабиётда сўз. – Т.: Фан, 1993; Ўша муаллиф. Ўзбек бадий прозаси тилининг луғавий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри ... дис. автореф. – Т.: 1994.

²² Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол. фанлари д-ри ... дис. – Т., 1991. – 202-229 б.

olinmagan va har tomonlama: fonetik, lugʻaviy, morfologik jihatdan, shuningdek, ogʻzaki yoki yozma nutq koʻrinishlaridagi holati boʻyicha oʻrganilmagan. Ayniqsa, lugʻaviy okkazionalizmlarning oʻziga xos xususiyatlari, okkazional soʻzning tugʻilish sabablari, unga boʻlgan ehtiyoj, okkazionalizmlarning unga yondosh boʻlgan hodisalar – neologizm, sinonimiya, normal va nonormal leksik birliklardan farqi, okkazional soʻzlarning tilda ado etuvchi uslubiy, badiiy-estetik vazifalari, bu tip soʻzlarning til lugʻat sistemasiga munosabati kabi muammolar oʻz tadqiqini kutmoqda.

Har bir yozuvchining yozish uslubi oʻzgacha. Asarni yaratish jarayonida til imkoniyatlaridan foydalanib, yangicha soʻzlar yasashga intiladilar. Asar talabidan favqulodda yaratilgan soʻzlar esa tilshunoslikda okkazionalizmlar deb yuritiladi. Okkazional soʻzi leksikografik jihatdan “Okkazional”lotincha soʻzdan olingan boʻlib, “occasionalis” – tasodifiy degan maʼnoni bildiradi, yaʼni, umum tomonidan qabul qilinmagan, qoʻllashlarga mos kelmaydigan, individual xususiyatga ega boʻlgan, maxsus kontekstga bogʻliq boʻlgan kabi maʼnolarni beradi”.²³ Demak, okkazionalizm– tilimizda kam qoʻllaniladigan, maʼlum bir kommunikativ maqsad tufayli yuzaga keladigan, ijodkorning individual ijodi orqali yaratiladigan hodisadir. Badiiy asarlar, ayniqsa, sheʼriyat badiiy okkazionalizmlar yaratiladigan maydon hisoblanadi. Shoir yoki yozuvchi oʻzining xayoliy dunyosini kitobxonga yetkazish uchun ham izlanadi. Okkazionalizmlarni Maqsud Shayxzodaning tarixiy dramalarida ham uchratamiz. Qahramonlar tilidan keltirilgan okkazional soʻzlar asar badiiyatini yanada oshirgan. Masalan, Mirzo Ulugʻbek dramasi qahramon Sayid Obid tilida keltirilgan **padarsoʻxta** leksemasi qoʻllanilgan.

Padarsoʻxta! Bu nima gap? (49-bet)

“Padar” –ota, “soʻxta” – yondirilgan maʼnolarini anglatadi. Matnda ikki leksemaning qoʻshiluvidan yangi yasalma hosil boʻlgan, yaʼni, kompozitsion usulda nutq talabi bilan yangi leksema vujudga kelgan. Bu leksema badiiy jihatdan

²³Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь – справочник лингвистических терминов. – М.: Просвещение. 1976. –Б.240.

qahramon xarakterini ham ochib bergan. Yoki quyidagi misrada ham shu holatni uchratamiz:

Uchovi ham nabirangiz, dastparvardangiz. (99-bet)

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “dast” – qo‘l, “parvarda” – keragida foydalanish uchun tayyorlangan degan ma‘nolarni anglatadi. Maqsud Shayxzoda ikki leksema birlashuvidan yangi sema hosil qilgan. Asar mazmuniga yangi leksema tayanchingiz, posboningiz kabi ma‘nolarni yuklagan. Bu kabi okkazanalizmlar Maqsud Shayxzoda ijodida ko‘plab uchraydi. Masalan, Ulug‘bek nutqidagi quyidagi misrani olsak:

Shavkatmaob volidamiz, kayflari chog‘mi? (96-bet)

“Shavkat” – kuch, “maob” – panohgoh degan ma‘nolarni e‘tiborga olsak, asarda bu leksema “kuchli panohgohimiz” degan ma‘noni anglatadi. Shuningdek, shavkatmaob okkazanalizmi asar mazmuniga hissiy estetik funksionallikni ham yuklagan.

Quyida yana bir yasalmani ko‘raylik:

O‘zlariga taalluqli paygirnoma bor. (37-bet)

Paygirnoma leksemasining birinchi asosi payg‘omgar so‘zining so‘zlashuv uslubida fonetik o‘zgarishga uchragan shaklidir. Navoiy asarlarining izohli lug‘atida “payg‘omgar” – xabar yetkazuvchi ma‘nosini anglatadi (4-tom, 437-bet). Ikkinchi komponent “noma” leksemasining qo‘shiluvidan yangi “xabar yo‘llovchining nomasi” leksemasi hosil bo‘lgan. Maqsud Shayxzoda bu okkazionalni qo‘llash orqali asar tarixiyiligini ham ochib bergan. Yoki Mirzo Ulug‘bek nutqidagi satrni ko‘raylik:

Qimiz ichdik, tira-mohi olmalar yedik. (55-bet)

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “tira” – bir narsani boshqa bir narsaga tirash, “moh” esa oy degan ma‘nolarni anglatadi. Qo‘llanilgan okkazional so‘z misra bo‘yoqdorligini, ohangdorligini oshirgan. *Tiravamoh* leksemalari ma‘zmunan bir-biriga aloqasi bo‘lmagan boshqa-boshqa so‘zlardir. Asar talabi bilan Maqsud Shayxzoda ikki leksemani juftlash orqali yangi individual okkazional so‘z hosil qilgan.

Okkazonalizmlar tilda mavjud bo'lgan tushunchalarni boshqacha ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular nutq talabi bilangina amalga oshadi. Masalan, dramada **epashanglik** leksemasi qo'llanilgan.

Epashanglik qildingiz, bek! (81-bet)

Tilimizda “*uddalay olmaslik, eplay olmaslik, bajara olmaslik*” kabi bir qator komponentlar mavjud. Lekin yozuvchi bu sema ma'nosini yanada ohangdor qilish maqsadida “*epashanglik*” leksemasini qo'lladi. Bu leksema esa asarga bo'yoqdorlikni, yangilikni yuklagan.

Okkazonal so'z o'z mohiyatiga ko'ra yasama so'z bo'lishi lozim, chunki u hech bo'lmaganda ikki morfemaning nisbatan erkin qo'shilishi natijasidir.²⁴ Ba'zi okkazonal so'zlar tildagi mavjud so'z yasalishi qoidalari asosida yaratiladi:

Assalom, ey, Samarqandning **vafokor** xalqi! (52-bet)

Ushbu parchadagi vafokorokkazonalizmi vafodor, vafoli so'zlaridan so'z yasalishi jihatidan farqlanmaydi. Lekin shunga qaramay, u, birinchidan, qo'llanish jihatidan birmartaligi bilan, ikkinchidan, muallif tomonidan ijod qilinishi bilan mazkur so'zlardan farq qiladi. Bu okkazonalizm me'yorlashtirilmagan nutq birligidir.

Maqsud Shayxzoda “Jaloliddin Manguberdi” dramasi ham bir qator okkazonal so'zlarni qo'llaydi. Jaloliddin nutqidagi leksemani ko'rsak:

Yana endi hamsaf bo'lsak qonli g'azoda! (312-bet)

O'zbek leksikonida ham komponentli hamfikr, hamdard, hamtovoq kabi so'zlar mavjud. Ammo hamsaf leksemasi asar matnidagina uchraydi. Bu esa Maqsud Shayxzodaga xos bo'lgan yana bir individuallikdir.

Lug'atimizdagi har qanday so'zni nutqiy jarayonda ma'lum bir ehtiyoj va kommunikativ talab tufayli ishlatamiz. Bu xususiyat esa okkazonalizmlarga ham xosdir. Masalan, “Mirzo Ulug'bek” dramasi ham quyidagi misrani olaylik:

Yangi sulton sizdan qilar iltimos:

Istaydilar, safaringiz yasalsa. (204-bet)

18. Тошалиева С.И. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фан. номзоди ... дис. – Т., 1998.

Nutqimizda safar qilmoq, safarga bormoq kabi leksemalar mavjud. Safar yasamoq okkazanalizmi esa asar talabi bilan xabar ma'zmunidagi komunikatsiya natijasida hosil bo'lgan.

Maqsud Shayxzoda dramalaridagi tahlilga tortilganlardan shu shu masala ravshanlashadiki, okkazional so'zlar tilning vaqt jihatiga dahldor emas, ya'ni uni, paydo bo'lgan vaqtidan qat'i nazar, na yangi so'z, na barqaror so'z deb atab bo'lmaydi. Okkazional so'zlar yozma matnlarda muhrlanib qolishi mumkin, ammo u og'zakinutqda tug'ilganida nutqiy jarayon tugashi bilan yashashdan mahrum bo'ladi. O'zbek adabiy tili tarixining turli davrlari adiblariga (M. SHayxzoda, H. Olimjon, U. Nosir, CHo'lpon, Mirtemir va boshqalar) tegishli okkazional so'zlar o'ziyaratilgan matnda bizning kunimizgacha yetib kelib, hech qanday o'zgarishga uchramadi, shu jumladan, eskirmadi ham, faollashmadi ham; tarixiy davrfaktoridan uzoq bo'lganligi tufayli bunday bo'lishi mumkin emas edi. Demak, bunday holda okkazional so'zlar tarixiy rivojlanish va o'zgarish omilidan yiroqdir. Okkazional so'zlarning ana shu biz ko'rsatgan xususiyatlari, ya'ni ularning printsipial jihatdan "eskirmasligi" ular to'g'risida "doimiy yangi so'zlar" yoki "abadiy yangi so'zlar" degan ancha keng tarqalgan fikrlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Xulosa qilib aytganda, okkazional so'zlarni yangi so'zlar qatoriga qo'shishtog'ri ham, maqsadga muvofiq ham emasdir. Ular nutqning o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan individual birligidir. O'zbek tili okkazionalizmlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, okkazional so'zlar nutqning mazmunini aniq, to'g'ri, obrazli va barcha qirralari bilan aksettirish maqsadida yaratiladi. Bu ma'noda ular nutqda muayyan badiiy-estetik vazifani bajaradi.

Maqsud Shayxzodaning har bir yaratgan so'z shakli betakrorligi, takrorlanmasligi, ayniqsa, estetik funksiyani bajarishi jihatidan tildagi mavjud lug'aviy birliklardan farq qiladi. Asarlaridagi okkazionalizmlar o'quvchi yoki tinglovchilarning hissiyotiga ta'sir etib, ularda yangilanish, ta'sirchanlikni vujudga keltiradi. Bu esa Maqsud Shayxzodaning mahoratidandir. Qolaversa, Maqsud Shayxzoda bu kabi ijodi bilan o'zbek she'riyatini yangi bosqichga ko'tarilishiga, shuningdek, o'zbek tili leksikasini boyitishga ham muvaffaq bo'lgan.

2.3. Lugʻaviy maʼnoviy koʻchimlar – asosiy lingvostilistik unsur

Soʻz oʻz tovush qobigʻiga ega boʻlgan, obʻektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular oʻrtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik maʼno va funksiyalarda qoʻllanadigan eng kichik asosiy til (nutq) birligi²⁵.

Soʻz tovush tomoni bilan fonetikaning; leksik birlik (leksema) sifatida leksikologiyaning; turli grammatik maʼnolarni ifodalashi va shu maʼnolarni ifodalovchi formalarga egaligi bilan morfologiyaning; soʻz birikmasi va gap qurilishida material asos boʻlib xizmat qilishi bilan sintaksisning oʻrganish obʻyektini hisoblanadi. Demak, soʻz grammatik qurilishining bazasi boʻlib, u tilning leksikasida ham, grammatikasida ham eng asosiy birlik sanaladi.

Soʻz obyektiv borliqdagi predmet yoki hodisalar haqidagi tushunchaning tovush vositasida ifodalanishidir. Bu tushuncha predmet yoki hodisaning ongda aks etishidir. Soʻz vositasida borliqning turli tomonlari, kishilik jamiyatining, insonning turmush tajribalari aks ettiriladi. Soʻz maʼno ifodalash bilan birga, turli emotsiyalarni, his-tuygʻularni ham ifodalaydi. Soʻz yakka holda bildirgan maʼnosidan tashqari, qoʻllanishida, nutq ichida, koʻchgan maʼnoda ishlatilishi, emotsional boʻyoqqa ega boʻlishi ham mumkin. Masalan, bolam soʻzi oʻrniga qoʻzichogʻim, toychoqim yoki boʻtam, boʻtalogʻim deyish; joʻja birday jon (bolasi koʻp); bu bola sher (qoʻrqmas); zurriyod (farzand) kabi qoʻllanishlar; otajon, bolaginam, jonim otam soʻzlarining maʼnosi turli yoʻllar bilan ifodalangan. Bundan koʻrinadiki, soʻz maʼnosi butun bir sistema boʻlib, u qoʻshimcha maʼnolarini ham, emotsional-stilistik ottenkalarni ham oʻz ichiga oladi. Bu hodisa soʻzning maʼno strukturasi deyiladi. Soʻzning semantik strukturasi shu soʻz ifodalaydigan maʼnolarning yigʻindisi, soʻzning butun maʼno sistemasidir.²⁶

Koʻrinadiki, tilning leksika va semantikasini oʻrganishda ikki yoʻnalish mavjud boʻlib, ularning birinchisi faqat leksik-semantik xususiyatlar bilan ish

²⁵Хожиев А. Лингвистик терминларининг изоҳли луғати. –Т., 1985. – Б.81.

²⁶Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. –Т., 1975ю – Б.16.

ko'rsa, ikkinchi yo'nalish esa tilning belgilar yig'indisi (semiotik sistema) ekanligiga asoslanadi. Lekin har ikki qarashning ham ob'yekti va vazifalari bir-biri bilan bog'liqdir. So'zning semantik strukturasi so'zlashuv situatsiyasida yoki kontekstda kengroq ochiladi. So'zning farqlanish alomatlari sema deb ataladi. Leksik qatlamda semantemaga leksema to'g'ri keladi. Semalar fonologiyadagi fonemalarning farqlanish belgilariga o'xshaydi. Farqi shuki, semalar o'rtasidagi munosabat ma'no bilan aloqadordir. Semantikada qaysi ma'nolar semalarga tegishli va qaysilari ularga tegishli emasligi aniq emas. Bunda bir-biriga yaqin ma'nolar, yani semalar sinonimik ma'nolar sifatida qaralishi ma'lum bir aniqlikka asoslanadi.

Nom ko'chishi asosida yangi ma'no hosil bo'lishi barcha mutaxassislar tomonidan e'tirof etilsa-da, lekin nom ko'chishiga olib keluvchi hodisalar, ularning turi masalasidagi qarashlar turlicha. Ba'zi ishlarda nom ko'chishiga olib keladigan hodisaning ikki turi ko'rsatilsa, ayrim ishlarda bunday hodisalarning undan ko'p turlari ko'rsatiladi. Lingvistik adabiyotlarning ko'pchiligida esa (ayniqsa, keyingi vaqtlarda nashr etilgan adabiyotlarda) nom ko'chishiga olib keluvchi hodisaning to'rt turi keltiradi: 1) metafora, 2) metonimiya, 3) sinekdoxa, 4) vazifadoshlik.

Ma'lumki, so'zlar asl-real ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noni ham anglatadi. So'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganda predmet-hodisalarni atabgina qolmay, o'sha predmet va hodisalarni tasvirlash vazifasini ham bajaradi. Ko'chma ma'no tildagi so'zlarning to'g'ri ma'nosi negizida vujudga keladi. Ko'chma ma'noli so'zlar ilmiy va rasmiy uslubdan tashqari barcha uslublarda qo'llaniladi. So'zlarning ko'chma ma'nosi faqat kontekstda reallashadi.

Badiiy nutqda hatto o'zining to'g'ri ma'nosi bilan qo'llangan so'z lug'atdagi ayni shu so'z bilan teng kela olmaydi. Chunki u estetik butunlik bo'lgan yaxlit badiiy asar matni tarkibida boshqa so'zlar bilan faqat semantik - grammatik jihatdangina emas, balki hissiy-estetik jihatdan ham munosabatga kirishadi.

O'zbek tili jozibasini yanada yuksalishiga o'z ijodi bilan munosib hissa qo'shgan adiblardan biri Maqsud Shayxzodadir. U adabiyot ummonida g'avvosdek ijod qiladi. Shayxzoda ko'pqirrali iste'dod sohibi. Uning "Jaloliddin Manguberdi"

va “Mirzo Ulug‘bek” dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib ulgurgan. “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” tarixiy dramalarida Shayxzoda Vatan erki, mustaqilligi uchun fidoiylarcha kurash olib borgan jasur sarkardalar qiyofasini ona tilimiz imkoniyatlaridan foydalanib, badiiy bo‘yoqlarda gavdalantiradi. Qahramonlararo konfliktda ham sun‘iylikga yo‘l qo‘ymaydi. Shuningdek, dramalarning badiiy jihatdan teranligini, monolog va dialoglarning pishiq ishlanganligini, har bir qahramon xarakterining ham til boyligini, ham ruhiy dunyosidagi o‘ziga xoslikni tarixiy dramatik jihatidan ifodalay olgan. Ikki dramada o‘zbek tilining yashirin imkoniyatlari, til birliklarining o‘ziga xos nozik ma’nolar ifodalashdagi lingvopoetik xususiyatlari, jozibasi, bo‘yoqdorligi, ifodaliligi, emotsional-ekspressivligi turli til vositalari yordamida namoyon bo‘ladi. Xususan, qahramonlar nutqida ma’no ko‘chirlari asosidagi metaforalardan foydalanilganligi asar badiiyatini oshirgan va tildagi obrazlilik imkoniyati darajasini ochib bergan. Metaforalar kitobxonni lirik qahramonning ichki olam his-tuyg‘ulari, quvonch-u umidlari bilan tanishtiradi, o‘ylashga majbur qiladi, shuningdek unga cheksiz zavq bag‘ishlaydi.

Insoniyatning olamni bilishida o‘xshatishning o‘rni beqiyosdir. Yangi kuzatilayotgan narsa va hodisa doimo oldin o‘zlashtirgan narsa va hodisaga qiyoslanadi, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik oldingi nomning yangi narsa va hodisa uchun ishlatilishiga sabab bo‘ladi. Tilda ilgari mavjud bo‘lgan nomning muayyan o‘xshashlik asosida yangi ma’no uchun qo‘llanishi oddiy nominatsiya vazifasinigina bajarmaydi, balki tinglovchiga ta’sir etish vazifasini ham bajaradi, hamda tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Ana shunday ko‘chim – METAFORADIR.

Metafora nominatsiya jarayonida muhim o‘rin tutishiga qaramay, shu kunga qadar ko‘proq badiiy vosita sifatida adabiyoshunoslarning diqqatini jalb qilib keldi. Lekin har qanday badiiy vosita, ifoda lingvistik vosita yordamida amalga oshiriladi. Shunday ekan, badiiy nutq tarkibidagi ko‘chimlar muayyan lingvistik qonuniyatlar asosida maydonga keladi. Shuning uchun ham ular adabiyotshunoslikninggina emas, tilshunoslikning ham tekshirish ob’ekti sanaladi.

Metaforaning o'rganilish tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Aristotel zamonidan buyon u ritorika, psixologiya, falsafa, stilistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va xatto kibernetika kabi fan namoyondalari tomonidan tahlil qilib kelindi. Lekin bu bilan masalaning lingvistik aspekti yetarlicha o'rganilgan deb bo'lmaydi. Har qanday badiiy vositalar lisoniy vositalar yordamida moddiylashadi. Shuning uchun ham metaforani lingvistik nuqtai nazardan o'rganish zarurdir.²⁷

Dramalarda qo'llanilgan metaforalar badiiy pardozi bo'libgina qolmay, shoirning ijodiy tafakkuri, til birliklaridan foydalanish mahoratidan ham darak beradi. Buni quyidagi misol orqali ko'raylik:

*El uzra **bulutlar** kelsa havodan,
Maydonga kirmaymi qo'rqib **balodan?**
Yo'q, kelsin **bo'ronlar**, yog'sin **toshlar** ham,
Bular nazarimda **sahargi shabnam**.*²⁸

Jaloliddin tilidan keltirilgan bu parchada semantik jihatdan denotativ ma'no o'zgartirgan. Ya'ni, bulut, balo, bo'ron, tosh leksemalari shuningdek, sahargi shabnam birikmalari asl bosh ma'nosini yo'qotgan. Kontekst hisobiga ko'chma ma'noda qo'llanilgan. Leksik birliklardan yangi hosila ma'no yasalgan. Asar talabidagi hosila ma'no "raqib" leksemasiga birlashgan. Asar matnida raqib Chingizxonidir.

Ma'lumki, ma'no ko'chmalari so'zning odatiy ma'nosidan qaysidir o'xshashlik asosida o'zga ma'noda qo'llanilishidir. Jumladan, metafora ham lingvopoetik vosita sifatida ko'chma ma'no asosida yuzaga keladi. Bu lingvopoetik vosita adabiyotshunoslikda istiora deb ham yuritiladi. Metaforalar mazmun-mohiyatiga ko'ra har bir millatning xususiyatlarini o'zida qamrab oladi va bu metaforalar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi yoki tilda tayyor holda mavjud bo'lmaydi. Uning inson ongida paydo bo'lishi va badiiy ijod mahsuli bo'lgan

²⁷Бикертон Д.Кведение в лингвистическую теорию метафорий //Теория метафорий. –М.: Наука, 1990. – С. 287-506.

²⁸М.Шайхзода. Дунё боқий. – Тошкент: Ф.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашрети, 1988. – Б. 309.

poetik matnga ko‘chib, lingvopoetik vosita maqomini olishi o‘ziga xos bir jarayon hisoblanadi. Maqsud Shayxzoda ham tilimizdagi mavjud metaforalardan foydalanish barobarida o‘zi ham yangi metaforalar yaratadi. Bunday metaforalar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi:

Mayli, o‘tsin tun-u kun, haftalar o‘tsin,

*Mayli, **quyosh uxlasin, yulduzlar yotsin.***

*Ko‘p o‘tmay yotog‘iga borsin **yuvosh oy,***

Allalasin cho‘llarni bu aldoqchi soy.

*Balki suvda **betinch baliqlar, uxlar***

Ammo tingla, daryoda josus qayiqlar! (317-bet)

Fikr ifodalash jarayonida ijodkor voqelikka nisbat bermoqda, o‘xshatmoqda. Metaforalarning badiiy matnda qo‘llanishi emotsional-ekspressivlikni ta‘minlagan, asarning badiiy-estetik ta‘sirchanligini oshirgan, fikrlarni ixcham tarzda ifodalash imkonini bergan. Shayxzoda yangi, individual ma‘nolarni yasashga muvaffaq bo‘lgan.

XX asrga kelib, ayniqsa, keyingi paytlarda kognitiv tilshunoslikning shakllanishi bilan metaforaga qarash butunlay o‘zgardi, uning ko‘lami kengaydi. Agar an‘anaviy tushunishda “metafora” termini ostida bir so‘zning boshqasi bilan almashtirilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, bugun aksariyat tadqiqotchilar metafora tom ma‘noda fundamental bilish faolyatining namoyon bo‘lishi ekanligini e‘tirof etadilar. Ko‘rinib turganiday, metafora ko‘p qirrali va benohoya murakkab hodisa bo‘lganligi uchun ham uning talqinlarida farqli jihatlar ancha – muncha.

Metaforalar Maqsud Shayxzoda ijodida ko‘p uchraydi. Shoir tomonidan metafora sifatida tanlangan poetik obraz real voqelikni badiiy bo‘yoqlarda aks ettiradi, kitobxonga badiiy-estetik ta‘sir ko‘rsatadi. Adabiyotlarda metaforalar lingvistik va badiiy metaforalarga ajratiladi. Ular funksiyasiga ko‘ra farqlanib turadi:

*U kuylarni, u qamish naydan
Eshitgandim Jalol ila men,*

Sirdaryoning labida bir dam. (323-bet)

“Sirdaryoning labi” deya Temur Malik tilidan aytilgan lingvistik metafora asar ohangdorligini oshirgan. Ma’no ko‘chimida bevosita o‘xshatishga asoslanilgan. Ya’ni, lab – insonning ta’na a’zosi. “Sirdaryoning labi” birikmasida esa yangi hosila ma’no yasalgan. Ma’no ko‘chimida bevosita o‘xshatish asosidagi joylashish o‘rni nisbat qilib olingan.

Bugun barcha tadqiqotchilar tomonidan to’la e’tirof etilgan metaforaning til vositasi va poetik figura sifatidagi ikki yoqlama mohiyati dastlab Sitsiron tomonidan obrazli tarzda mana bunday ochilgan: “Xuddi kiyim dastlab sovuqdan himoyalani uchun kashf qilinib, keyinchalik tananing bezagi va shaxsning farqlovchi belgisi sifatida ham qo’llanadigan bo’lib qolgani kabi, metaforik ifodalar ham tilda so’zlarning yetishmasligini to’ldirish uchun yaratilib, keyin ko’proq huzurlanish uchun qo’llanadigan bo’lib qolgan”. N.Mahmudov bu fikr haqiqatni yetarli darajada aks ettirmasligini ta’kidlagani holda, metafora go’yo nominativ maqsad bilan denotativni ifodalash uchun yaratiladi, keyin muayyan konnotativ ma’noni ifodalash uchun jalb qilinadi, ya’ni oldin lisoniy metafora yuzaga keladi, badiiy metafora esa undan keyin yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Shuningek, badiiy metaforalar lisoniy metaforalarsiz ham maydonga kelishi, keyinchalik lisoniy metafora maqomini olishi ham mumkin deb hisoblaydi va ko’pchilik tadqiqotchilar keyingi holatni asosiy deb sanashini aytib o’tadi.²⁹

“Mirzo Ulug‘bek” dramasi misolidagi badiiy metaforani ko‘raylik:

*Oh, musiqiy she’riyatning hamshirasi u.*³⁰

Bu misol kitobxonni biroz o‘yga toldiradi. Shayxzoda she’riyatning hamshirasi deya “may quyilgan qadahni sipqarib ichish” jarayonini nazarda tutmoqda. Birikmada to‘laligicha obrazli fikr yuritilgan, ya’ni hamshira leksemasidagi jonga malham bo‘lish semasi asar kontekstiga ko‘chirilgan.

Oshiq obrazidagi Badriddin Jaloliddinning singlisi Sultonbegimni quyidagicha nomlaydi:

²⁹Махмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. –Т.: Академнашр, 2014. – Б.9.

³⁰М.Шайхзода. Мирзо Улуғбек. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б.27.

Malikam, farishtam, quyoshim, oyim! (333-bet)

Oshiqning o‘z sevgilisiga munosabati metafora vositasida ifodalangan. U sevgilisiga so‘zlaganda uning nomini tilga olmaydi, balki uni “malikam, farishtam, quyoshim, oyim” deb ataydi. Murojaatning bu shaklida muhabbat, hurmat, erkalash semalari sezilib turadi. Lirik qahramon uchun sevimli qiz va farishta, quyosh, oy leksemalari o‘zaro egiz tushunchalardir. Ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Oshiqning murojaatidan anglashiladiki, metaforada voqelikdagi bir predmetga xos belgi-xususiyatlarni boshqa bir semaga ko‘chiriladi va bu o‘z navbatida nom ko‘chish hodisasini yuzaga keltiradi. Yuqorida tahlilga tortilgan leksemalarlingvopoetik vosita sifatida metaforik ma’no kasb etgan. Metafora qizni o‘zaro bog‘lab turuvchi xususiyatlar, ya’ni ularning go‘zalligi, ishvakorligi, kuzatuvchiga estetik zavq bag‘ishlashi kabi semalar asosida yuzaga kelgan. Quyosh, oy leksemalarining metafora sifatida qo‘llanishi bevosita matnga bog‘liq. Uning biz yuqorida ko‘rib o‘tgan “go‘zal yor” ma’nosi adabiy tilimizda doimiy metafora sifatida qaralmaydi. U Shayxzodaning asar emotsiyasini oshirishda foydalangan individual metaforaning yorqin namunasi. Shuning uchun quyosh, oy leksemalari matndan tashqarida jonsiz predmet ma’nosini ifodalashi bilan cheklanadi. U yakka holda metaforik xarakterida bo‘lmaydi.

Poetik matnlarda metafora ijodkorning o‘z asari tilining emotsional-ekspressivligini ta’minlashda, obrazlilik hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. M.Mirtojiyev o‘z kuzatishlarida bu vositaning mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. U metaforaning sof metaforalar, jonlantirishlar kabi turlari mavjud deb hisoblaydi. “Metaforik jonlantirish tilshunoslikka oid asarlarda personifikatsiya deb ham ataladi”³¹. Buni “Jaloliddin Manguberdi” misolidagi quyidagi misrani ko‘raylik:

Bedanaday talashar ko‘nglimda hislar,

Tosh otilgan bir ko‘lday qaynaydi eslar!...

Sevgi, ishq ham muhabbat... Qanday ajib hol!

³¹Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, 2000.-Б.10-11.

Amudaryo suvidek qorishdi xayol! (355-bet)

Misolda insonga xos bo'lgan his-tuyg'ular sayramoqchi bo'lgan bedanaday navbat talashmoqda. Bu ham asar ekspressivligini yanada oshirgan. Yoki o'tmish xotirotlarini eslash birikmasi o'rnida yangi hosila ma'no – ko'lga tosh otish manzarasiga qiyoslanilmoqda. Xayolning Amudaryo suvidek qorishganligi ham jonlantirish asosidagi yangi hosila ma'nodir. "Mirzo Ulug'bek" dramasida esa metaforik jonlantirish yanada oydinlashadi.

Shu zangori ko'kni degin yalanglik o'tloq.

Mana senga misol uchun, bir to'da yulduz,

Fahming yetsa, uni bilgin bir suruv qo'y deb.

Mana deylik o'sha bulut...tog' tizmasin qorli sirtlari,

Fahming yetsa, sen chaqmoqni hassa deb bilgin.

Qo'ychivon oy – o'dag'aylab urar tog'larga.

Yomg'ir - osmon qo'ylarining tabarruk suti.

Qorlar esa qo'ylardan to'kilgan junlar. (8-9-betlar)

Bu jonlantirishlarda paradigmatic ma'no asosidagi metafora mavjud. Ya'ni, osmon leksemasiga yulduz, bulut, chaqmoq, oy, yomg'ir, qor semalari birlashgan. Kontekst talabi bilan paradigmatic qatordan yangi denotativ ma'no vujudga kelgan. Bu ham Maqsud Shayxzodagagina xos bo'lgan individual metafora yasash strukturalaridan biridir.

M.Mirtojiev tasnifidagi sof metaforalar ham tarixiy dramalarda o'zgachalik hosil qilgan.

Yostig'im tosh-u tikan, xonam bo'lib vayronalar,

El xarob, umid sarob, davlat turob, ko'nglim kabob...(355-bet)

Sof metaforalarda o'zaro o'xshatilgan denotatlarning biror belgisi aniq tasvirlanadi va ko'zga tashlanadigan belgisi asos qilib olingan bo'ladi. Xususan, "yostig'im tosh-u tikan" birikmasida tosh leksemasiga xos bo'lgan belgi o'xshashlik asosidagi qattqlik semasi yostiq leksemasiga ko'chib yangi hosila ma'no yasagan. "Ko'nglim kabob" semasida esa harakat o'xshashligidagi

kabobning maromida pishish jarayoni ko'ngilning kuyishiga taqqoslanmoqda. Yoki "Mirzo Ulug'bek" dramasi Firuzaning Ulug'bekka murojaatini ko'raylik:

Qalbsiz badan – o'chgan chiroq, olovsiz tutun. (39-bet)

Bu ham asar vaziyatidagi yangisof metaforadir. Shayxzoda yuraksiz tanani zulmat va muhabbatning alanga olmay tutun kabi o'chib qolish semalariga birlashtirgan. Belgi o'xshashligi zamiridagi metaforani asos qilib olgan.

Metafora ikki dramada nisbatan ko'proq foydalanilgan. Masalan, *xudoningyer yuzida–soyasi* (M.U,65), *yuragimning musiqasi* (71), *ma'rifatning chirog'i* (72), *uy husniga xol tushdi* (90), *daryoda nahangdir, sahroda arslon* (J.M.378), *chaqmoqtoshga ham qo'nar shabnamlar* (405), *uyqumga iblis qildi rashk* (405), *bir musht kabi yumulmay qoldi saltanat* (414) kabi.

Lisoniy imkoniyatlar nutqiy hodisalar uchun sabab, mohiyat, umumiylik vazifasini o'taydi. Sababsiz natija, mohiyatsiz hodisa, umumiyliksiz xususiylik bo'lmaganidek, lisoniy asossiz nutqiy hodisa ham bo'lmaydi. Metaforaga lisoniy nuqtai nazardan yondashish zaruriyatini, shungacha mavjud bo'lgan nazariyalarni tekshirib chiqqan, D.Bikerton nihoyatda dolzarb deb baholaydi.

Ma'no ko'chish yo'llaridan yana biri – sinekdoxadir. Bu hodisa bir narsaning nomi bilan uning biror qismi (bo'laki)ni atash yoki, aksincha, qismning nomi bilan shu qism mansub bo'lgan butunni atashdir. Masalan, olma, anor, bodom kabi mevalar (qism) nomi bilan shu mevalarni anglatuvchi daraxtlarni atash, *qo'l* so'zi bilan shu a'zodagi bir qism (barmoq)ni atash sinekdoxa asosidadir. "Mirzo Ulug'bek" dramasi *qo'l* leksemasi zamirida shunday ma'no ko'chishi ifodalangan:

Bu ravshanki, sardorlarning boshidan ko'ra

O'ng qo'llari durust ishlar. Ammo ne chora? (65-bet)

Bu yo'l bilan nom ko'chishda butun nomi bo'lak (qism) nomi bilan ifodalangan.

Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalarida qo'llanilgan lingvopoetik ma'no ko'chimlari tarixiy mavzu

mohiyatini ochib berishda, qahramonlar nutqi ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, Maqsud Shayxzodaning ijodkorlik lisoniy zaxirasi, ona tilimiz qonuniyatlaridan xabardorligi ikki drama misolida yanada yaqqol ko'rinadi. Ona tilimizning o'z funksional-semantik imkoniyatlarini, turli ma'no nozikliklarini namoyon etishida Shayxzodaning xizmatlari beqiyosdir. U sara asarlari bilan adabiy tilimiz an'analarini davom ettira olgan va rivojlantirgan.

II bob bo'yicha xulosalar

1. Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalarida qo'llanilgan lingvopoetik ma'no ko'chimlarida hamda asar talabi bilan vujudga kelgan individual okkazonalizmlar tarixiy mavzu mohiyatini ochib berishda, qahramonlar nutqi ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Maqsud Shayxzodaning lisoniy zaxirasi, o'zbek tilining barcha imkoniyatlarini mahorat bilan foydalanganligi har ikki dramadayorqin ko'rinadi. O'zbek tilining funksional-semantik imkoniyatlari, lug'aviy birliklarning turli ma'no nozikliklarifojiaviy dramalarda to'la namoyon bo'lgan.

III BOB.MAQSUD SHAYXZODANING FONOPOETIK VA SINTAKTIK-USLUBIY VOSITALARDAN FOYDALANISH MAHORATI

3.1.Maqsud Shayxzoda dramalariningfonopoetik xususiyatlari

Har bir fan jamiyat rivoji bilan bog'liq holda taraqqiy etganidek, til ham jamiyatda yashaydi va u bilan teng o'sishda, rivojlanishda bo'ladi. Kishilik jamiyatida aloqa-aralashuvni ta'minlovchi muhim vosita hisoblangan til haqidagi talqinlar bugungi kunda rivojlangan va murakkablashgan. Til hodisalarini tavsiflashga antropologik jihatdan yondashuvning rivojlanishi munosabati bilan tilning fonetik qurilishini tadqiq etish rivojlandi. Tilga antropologik jihatdan qarash esa ko'proq badiiy asarlar misolida o'rganiladi. Jumladan, dramatik asarlarda, tragediyalarda voqea-hodisalar, asosan, badiiy timsollarning nutqi va xatti-harakatlari asosida yoritiladi. Shu bois qahramonlar nutqining emotsional-ekspressiv funksiyasi ko'proq fonetik vositalar yordamida ifodalanadi. Fonetik vositalar badiiy diskursning asosiy relevant (muhim o'rin tutadigan, ahamiyatli) belgisi, nutqiy go'zallikni yaratuvchi unsurlaridan sanaladi. Bu esa ijodkor, adabiyotshunos olim Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalarida yorqin kuzatiladi. Ma'lumki, har ikki drama erkin vaznda, ya'ni oq she'rda bitilgan. Odatda, she'riyatda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. Tilshunoslikda bu kabi masalalarni lingvopoetikaning bir qismi bo'lgan alohida yo'nalish fonopoetikada o'rganiladi.

Poetik nutq leksikasi eng muhim o'rganish obyekti bo'la oladi. Chunki bu sathning poetika bilan munosabati keng doirada o'rganishni talab etadi. Barmoq she'r tizimining bo'g'inlar miqdoriga asoslanishini bilamiz, undan tashqari turoqlarga bo'linishi, intonatsion xususiyatlari, pauzaning o'rni va tovushlar bilan bog'liq bir qancha san'atlarning yuzaga kelishida fonetika va poetikaning tutash nuqtasi – fonopoetika yuzaga keladi. Fonopoetika poetik nutqning muayyan vazifa bajaruvchi fonetik birliklari tadqiqidir. Buni esa keng ma'noda qabul qilish kerak. Sababi fonetik qonuniyatlarning har birini tahlil etish bilangina fonopoetikaning mohiyati ochilmaydi. Unga yondosh tarzda fonetik qonuniyatlardan poetik maqsadlarda foydalangan o'rinlar, yozuvda unchalik anglanmagan, lekin o'zi bir

nechta yashirin ma'nolarni ifoda etuvchi holatlar ham kuzatiladi. Poetik nutqning qurilish materiali ham aslida fonetik birliklardir.

Fonopoetika alohida yo'nalish sifatida tekshirilar ekan, uning o'ziga xos spetsifik xususiyatlari va tadqiq vositalarini aniqlab olish muhim hisoblanadi. Uning spetsifik xususiyatlari sifatida poetik asarni shakllantirish, mantiqiy va estetik, ekspressiv qimmatini oshirishi, musiqiylik, ovoz toni, tembr, ritmik intonatsiya va emotsiv jihatdan sifatlilikini ko'rsatish mumkin. Vaholanki, bular aslida fonetika va fonologiyaning tekshirish obyekti bo'lib, poetik asarni fonetik-fonologik jihatdan tekshirish fonopoetik tadqiq qilishga olib keladi.

Maqsud Shayxzoda ham dramalarida, asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Masalan, dramalarda alleteratsiyaning go'zal namunalarini kuzatish mumkin. Badiiy nutqning ohangdorligini va ta'sirchanligini

ta'minlashda alliteratsiyaning o'rni beqiyosdir. She'riy nutqdamisralar, undagi so'zlar hamda bo'g'inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo'lanishiga **alliteratsiya** deyiladi.³² Tovushlar zamiridagi musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq she'riyatida keng qo'llanilib kelingan. Ko'hna badiiyatshunoslik («ilmi bade'»)da alliteratsiya «tavzi' san'ati» deb yuritilgan. Ulug'bek nutqida shu hodisani kuzatish mumkin:

Tilimizda til tekkizib tilga kirgizgan. (II. 15-bet)

Tilshunoslikning fonologik sathida "t" undoshiga sifat berishda bu undoshning til oldi, jarangsiz, portlovchi undosh ekanligi barchamizga ma'lum. Ijodkor ham o'z mahorati orqali ana shu belgilarni inobatga olib, misraning musiqiylikini ta'minlab bergan.

Shu dramadagi Farmonshoh nutqida berilgan misrani ko'raylik:

Qimirlamang, qulbachchalar, qirib tashlayman! (II. 158-bet)

³²Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили асослари. –Тошкент: Фан, 2007.

Maqsud Shayxzoda satrlarda jangovori ruhni kasb etish uchun fonemalarni mohirona tanlab, ularni ustalik bilan o'z o'rniga qo'ya olgan. Ayniqsa, "q" undoshining hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchilik xususiyatini alohida e'tiborga olgan.

Maqsud Shayxzoda badiiy timsollar nutqini yaratarkan, ularning o'zligiga mos bo'lgan har bir til birliklarini saralab tanlab oladi va ular asar badiiyatining xalqchilligi va jozibadorligini oshirishga xizmat qilgan. Masalan, Ulug'bek nutqidagi yana bir ijodkor so'zamolligini ko'raylik:

Salom senga Samarqanddim, dorilsaltanat! (II.161-bet)

Yozuvchi leksemalar zamiridagi harflarni shunday mahorat bilan bitganki, ular satrga musiqiylik, ulug'vorlik kayfiyatini yuklaydi. Shuningdek, Ulug'bekning vatan sog'inchidagi obrazini ham ifodalab bergan.

"Jaloliddin Manguberdi" dramasi ham alleteratsiya namunalarini ko'rishimiz mumkin:

Hammasini eslamoq, aytmoq ne darkor

Buyrug'im buyruqdir, boshqa gap bekor... (I. 306-bet)

Xorazmshoh nutqidagi ushbu satrlarda bevosita shohlarga xos bo'lgan ruhni, da'vatkorlikni ko'rishimiz mumkin. Bu esa Maqsud Shayxzodaning hayot falsafasi keng ijodkor ekanligidan darak beradi.

Alleteratsiya badiiy yozma nutqda bir qarashda ko'zga tashlanmaydi. Ammo ular ohangdorlik orqali yaqqol eshitiladi va badiiy timsollar nutqida musiqiylikni ta'minlab beradi. Masalan, "Jaloliddin Manguberdi" fojeasidagi Maddoh nutqidagi bir namunani ko'raylik:

Assalom, Davlatpanoh, hazrat Jaloliddin yasha!

Mangulik birla yasha, yo Manguberdi marhabo. (I.299-bet)

Sarkarda Jaloliddinni madh etuvchi bu satrlarda bevosita alleteratsiya misraning jarangdorligini oshirgan va xushohanglik orqali estetik ta'sirni kuchaytirgan.

“MirzoUlug‘bek”

tragediyasida alleteratsiyaga asoslangan Temurarvohinutqidabir nechabortakror qo‘lla nadigan quyidagishe’riymisraasargao‘zgacharuh bergan:

Urho-urho! Yog ‘i, qochdi, yo olloh, urho!(II.174-b.)

Epifora takrorning bir turi bo‘lib, tovushlar tugallanishi ham deb yuritiladi.³³ Takrorning xususiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, she’rdagi bir necha misra oxirida bitta so‘z yoki so‘z birikmasining takrorlanishi. Masalan, “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasi misolida ko‘raylik:

Shomu sharif labborasi mushtari, yo mushtari,

Ahli Qofqoz jubbasi mushtari, yo mushtari,

Buxoroyi sharif jomasi mushtari, yo mushtari.(341-b.)

Yoki “MirzoUlug‘bek” tragediyasi misolida:

Shubha – boshqa, dalil – boshqa, xulosa – boshqa. (11-b.)

Professor N.M.Mallayev Maqsud Shayxzodaning ijodiy faoliyati haqida quyidagilarni ta’kidlaydi: “ Maqsud Shayxzoda nihoyatda hozirjavob, chinakamiga xalq shoiri edi. U hayot poeziyasini chuqur his va idrok etar, voqelikning eng muhim jihatlarini tez payqab olar, o‘zini doimo keng omma ichida ko‘rar, xalqning turli toifalari bilan inoqlashib ketar, ular bilan til va dil topa olardi”³⁴

Darhaqiqat, shoir hayot qonuniyatlarini teran anglab, ularni badiiy hal qilishga intiluvchi so‘z san’atkoridir. Uning dramalari bilan tanishar ekanmiz, ularda ifodalangan fikrlarda falsafiy lirikaning mohiyati ochilganday ko‘rinadi. Shoir dramalarida qo‘llangan fonopoetik vositalar zamiridagi ehtiros to‘la baytlar va quyma misralar qalblarda chuqur iz qoldirib, ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlaydi. Shuning uchun ham, Maqsud Shayxzoda ijodi o‘lmas. Uni inson ruhiy olamining to‘laqonli, hamisha boyib, mukammallashib boruvchi qomusidir, desak xato qilmaymiz. Bu qomusda oydin kechalarning rassomona tasviri, sevinch va qayg‘u shiddatlari, kurash va yengish ilhomlari, kishilarning jasoratli ishlari - barchasi yuksak ijodiy mahorat bilan ko‘zga tashlanib turadi. Shuning uchun ham adibning

³³Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили асослари. –Тошкент: Фан,2007.

³⁴www.ziyonet.uz

qalamidan bunyodga kelgan fojeaviy tarixiy dramalar o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin egallay olgan.

3.2. Drama matnlaridagi murojaat shakllarining lingvopoetik xususiyatlari

Har bir millat tarixining o'zligini anglatib turuvchi asosiy va ajralmas qismi xalq tili hisoblanadi. Xalq tili namunalarini esa bevosita badiiy asarlarda ko'ramiz.

Badiiy matnlarning lingvopoetik jihatlarini o‘rganish tarixiy an‘analarimiz va kelajagimiz, til taraqqiyoti uchun muhim omillardan biridir. Shu bois badiiy asar tilini o‘rganishda badiiylik va uni ta’minlovchi leksik-semantik vositalarning mohiyatini anglashimiz lozim. Asar qanchalar badiiy jihatdan yetuk, barkamol va go‘zal bo‘lsa, u shunchalar kishiga tez hamda kuchli ta’sir ko‘rsatadi, uni hayajonga soladi, kishida kuchli ehtirolarni qo‘zg‘aydi. Badiiylik har bir asarning tashqi libosidir. Libosning jilvakorligi esa yozuvchi mahoratiga bog‘liq. Ana shunday mahorat ustalaridan biri Maqsud Shayxzodadir. Shayxzoda – o‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, mashhur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimondir. Dramaturgiya sohasida “Mirzo Ulug‘bek” va “Jaloliddin Manguberdi” asarlarini yaratdi. Ular tarixiylik, badiiylik va lingvistik jihatdan mazmundor asarlardir.

“Mirzo Ulug‘bek” dramasida murojaat shakllaridan biri hisoblangan undalmalarning faol qo‘llanilganligini guvohi bo‘lamiz. “Gap bo‘laklariga bog‘lanmaydigan bo‘lak” yoki “gapning uchinchi darajali bo‘lagi” sifatida talqin etilayotgan sintaktik birliklardan biri – undalmalar tilshunosligimizda ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. “Undalmalar kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida – nutq jarayonida keng qo‘llaniladigan, o‘zaro aloqa aralashuvga faol xizmat qiladigan, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan, o‘zida turli modal ma’nolarni tashiydigan o‘tkir, ta’sirchan vositadir”.³⁵ Mumtoz adabiyotda ular nido va iltifot san’ati doirasida o‘rganiladi. Badiiy adabiyotda ularni qo‘llash usullari turlichadir. Xususan, Maqsud Shayxzoda dramasida undalmalar kommunikativ maqsadni yetkazib berishda appelyativ (xitob va murojaat orqali muloqotni boshlash), konnotativ (subyektiv munosabat – salbiy va ijobiy munosabatlarni ifodalash) hamda emotiv (hissiy munosabat) funksiyalarni bajargan. Shu jihatdan “Mirzo Ulug‘bek” dramasida qo‘llanilgan undalmalarni vazifa nuqtayi nazaridan 3 guruhga bo‘lamiz:

- 1) appelyativ munosabatli;

³⁵www.ziyonet.uz

2) konnotativ munosabatli;

3) emotiv munosabatli.

Appelyativ munosabat turidagi murojaat shakli nutqiy vaziyatda darak-xabar, xitob ma'nolarida qo'llaniladi. Bu turdagi undalmaga "Mirzo Ulug'bek" dramasi dan olingan quyidagi misolni keltirishimiz mumkin:

*Jim, **yigitlar!** A'lohazrat ilm o'ylaydilar.*(II, 7-b.)

Asarning boshlanish qismida qo'llanilgan ushbu undalma kommunikativ munosabatni yetkazish jihatidan jumlagi xitob ma'nosini yuklagan. Morfologik nuqtayi nazardan esa bosh kelishik formasidagi ot so'z turkumi bilan ifodalangan. Qo'llanilishiga ko'ra uslubiy neytral undalmdir.

Shunday undalmalardan birini Mirzo Ulug'bek nutqida ko'rishimiz ham mumkin:

*Marhabo, **ey ahli-urfon,** xayrli oqshom!*

Amir Temur himmatidin Ulug'bek so'zim!(II, 16-b.)

Murojaat shakli juftlashgan ot tarzida ifodalangan. Gap mazmuniga appelyativ munosabat bilan birga muallif aks ettirmoqchi bo'lgan Ulug'bekona ko'tarinkilik, mamnunlik semalarini ham yuklagan.

Badiiy adabiyotda malum bir asar yaratilar ekan, ularning barida murojaat shakllari miqyosi ancha bo'ladi. Kommunikativ munosabat jihatidan muallif ularni turli o'rinlarda turlicha qo'llaydi. Maqsud Shayxzoda dramalarida undalmalarning ko'proq emotiv munosabatli turini uchratamiz:

*Marhabo, **ey samovotning oltin yo'ichisi!***

Nega beling shuncha bukik charchab qoldingmi?(II, 11-b.)

Shayxzoda asar qahramonlarini tasvirlashda ularning har biriga individual tarzda yondashadi. Ijodkor obrazlarni voqelikda gavdalantirar ekan, ularga xos lingvistik birliklarni ham mahorat bilan qo'llay olgan. Mirzo Ulug'bek nutqida keltirilgan undalmada o'xshatish asosidagi oy leksemasi nazarda tutilgan. Murojaat shakli so'z birikmasi tarzida ifodalangan bo'lib, Shayxzoda birikmani tasviriy ifoda shaklida qo'llagan.

Shayxzoda keyingi misrada ham Ulug‘bekona oyga oshiqlikni hissiy ekspressivlik bilan ifodalay olgan.

Oh azizam, ming-ming yillar yiroq yo‘llarda

Yurgan yo‘lchi tolib qolsa, taajjub emas!(II, 11-b.)

Bu misralarda Shayxzoda o‘yning beli bukik ekanligini samo uzra yo‘l yurib charchaganligi bilan Ulug‘bek nutqida yanada ta’sirchan ifodalagan. Ulug‘bek oyni sevimli yoridek ko‘radi va uni u kabi erkalaydi. **Oh azizam** shaklidagi murojaati orqali Ulug‘bek oyga bor dar-u hasratlarini bayon etayotgandek. Ayniqsa, undalmaning undov so‘z bilan qo‘llanilishi jumla emotsiyasini kuchaytirgan.

Undalmalar o‘zining leksik-grammatik tabiati bilan undashdan tashqari, nutqiy vaziyatda ma’lum vazifada kelgan shaxs, predmetlarni xarakterlaydi ham. Masalan, “Mirzo Ulug‘bek” dramasida quyidagicha keltiriladi:

Qulluq, *janob shahriyori falak iqtidor!*(II, 16-b.)

Murojaat shakli murakkab so‘z birikmasi shaklida bo‘lib, u asarga ko‘tarinkilik, minnatdorlik kayfiyatini olib kirgan. Undalmada Mirzo Ulug‘bek nazarda tutilib, “samoning qobiliyatli buyuk shahansho‘hi janobi oliylari” mazmuni anglashilmoqda. Shuningdek, murojaat shakli tarixiy leksema bilan ifodalangan.

“Mirzo Ulug‘bek” dramasida qo‘llanilgan har bir undalma o‘ziga xos badiiy funksiya bajargan. Lingvopoetik jihatdan esa murojaat shakllarining ko‘pi emotiv munosabatli kommunikatsiyada faol qo‘llanilgan: Oh, *mehribon qumriginam*(39), *Valene‘mat*(39), *Firuzaooy*(40), *Padarso‘xta*(49), ey, *Samarqandning vafokor xalqi*(52)...

Undalmalar matnga kiritilar ekan, albatta qandaydir maqsad bo‘ladi. Ular ona tilimizning so‘zga boy ekanligini ko‘rsatish bilan birga, nutqda tinglovchi e’tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Bunday birliklarda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi yaqinlik, hurmat, ishonch, hurmatsizlik, ishonchsizlik kabi kommunikativ munosabatlar ham ifodalangan bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan ularning barida konnotativ munosabat mavjud ya’ni, albatta har qanday undalmada salbiy yoki ijobiy fikr ustunlik qiladi. Maqsud

Shayxzoda dramasi ham konnotativ munosabatli undalmalarni uchratamiz. Masalan, quyidagicha:

Bas qilinglar safsatani, hay og‘zi bo‘shlar!

Yulduzlarni tekshirmoqni sultonga qo‘ying. (11)

Devonbegi nutqida keltirilgan ushbu undalmanda saroy posbonlariga qarata aytilgan salbiy munosabat ifodalangan. Lingvistik jihatdan esa ibora shaklida keltirilgan.

Shu mazmundagi undalmani quyida ham ko‘rishimiz mumkin:

Sayidlikning sharafidan mahrum noxalaf,

Siz yorug‘ning g‘animisiz, zulmat maddohi. (33)

Ulug‘bek nutqida keltirilgan murojaat shakli muhtassib Sayid Obidga qarata aytiladi. Jumla zamirida salbiy munosabatli g‘azab va nafrat semalari ifodalangan.

Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o‘ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Maqsud Shayxzoda esa tildagi lisoniy birliklardan o‘rinli foydalanib o‘z asarlarini mukammallik darajasiga yetkiza olgan. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo‘lish, xafa bo‘lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so‘roq, ta’kid, rozilik, tilak, istak, qo‘llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchi murojaat mazmunidagi undalmalardan foydalangan. Murojaat shakllari muallifning estetik niyatining ro‘yobiga xizmat qilgan. Shuningdek, undalmalarning har biri asarning tarixiy drama ekanligini ham isbotlab bergan.

3.3. Paremlar – dramatik nutq ko‘rki

Xalq og‘zaki ijodida necha ming yillardan beri sayqallanib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan maqol, masal va hikmatli so‘zlar lisoniy nuqtayi nazardan tilning lug‘aviy birliklaridir. Tilshunoslida bu kabi birliklar paremlar deb ataladi. **Parema** termini tarixiy-etimologik manbasiga ko‘ra yunoncha bo‘lib, “paromia” – hikmatli so‘z, zarbulmasal kabi ma’nolarni anglatadi.

Ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli so'zlar paremalardir³⁶. Maqol va matalarda xalqimizning asrlar davomida tajribada sinalgan donoligi namoyon bo'ladi. Badiiy asar tiliga ularni kiritilishi esa asar bo'yoqdorligini yanada oshiradi.

Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o'zi va o'zligi to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda. Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaratilib turgan, eskilarining jonli muomalada, tilda mavjudlarining ma'no doirasi kengayib yoki torayib borgan. Hatto ularning muayyan qismi unutilib ketgan. Chunki o'zbek xalqining bunday ulkan folklor merosi folkloristik nuqtayi nazardan keyingi asrlargacha deyarli to'planmay va o'rganilmay kelgan. Bundan xalq maqollari o'tmish adiblari, shoirlari, tarixchilari e'tiboridan mutlaqo chetda ekan, degan xulosa chiqarmasligimiz kerak. Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy,

³⁶www.ziyonet.uz

Rabgʻuziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulgʻozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Choʻlpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, Gʻafur Gʻulom va boshqa oʻnlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab oʻrganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar baʼzan aynan, baʼzan oʻzgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Tariximizda hatto maqolga maxsus, agar taʼbir joiz boʻlsa, folkloristik nuqtayi nazardan, garchi epizodik xarakterda boʻlsa-da, munosabatda boʻlingan hollarga ham duch kelamiz. XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshgʻariyning toʻplovchilik faoliyati va uning «Devoni lugʻotit turk» asari bunga yorqin misol boʻla oladi. «Devon»da turli munosabatlar bilan turk xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim oʻzgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda. Bu oʻrinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini taʼkidlab oʻtish zarur. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq maqol mavjud.

Maqollar koʻp asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qatʼiy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir soʻzning maʼno xilma-xiiligi, iboralarning turgʻunligi, shakily barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qoʻllanish oʻrniga qarab ularning maʼno doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir soʻzga alohida eʼtibor berish kerak. Ularda shunday soʻzlar borki, bu soʻzlar tarixan butunlay boshqa maʼnolarni anglatgan. Masalan, tuz soʻzi bugungi kunda mineral moddani bildiradi. Tarixan bu soʻz toʻgʻri, odobli; dala, tekislik maʼnolarini anglatgan va faqat maqollardagina saqlanib qolgan:

Qiz saqlasang, tuz saqla.

Tuzdagi bilan emas, uydagi bilan boʻl.

Ijodkorning mahorati tildagi mavjud lisoniy birliklardan asarning janr xususiyatlariga, mavzusi va g'oyasiga muvofiq tarzda o'rinli, unumli foydalanishiga bog'liqdir.

Atoqli adib Maqsud Shayxzoda ham o'zining dramatik asarlarida paremalardan unumli va yuksak mahorat bilan foydalangan. Masalan, "Jaloliddin Manguberdi" dramasida quyidagi mashhur arabcha hikmatlim jumlar asarga ta'sirchanlik olib kirgan.

Ahkomi – Qur'on

Buyurmish: vatanni hiz ayla har on,

Hadisda Muhammad rasul-zishon

Debdi: "Xubbil – vatan minal – iymon".³⁷

Ma'lumki, paremlar ko'p hollarda sodda yig'iq gap shaklida bo'lib, ma'lum bir fikrni qisqa va aniq shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu paremaning o'zbekcha muqobili "vatanni sevmoq iymondandir". Muallif bu paremani qo'llash orqali asarning mavzusiga xos ruhni ifodalashga erishgan. Shuningdek, Shayxzoda bu asarni yozish jarayonida 1217-yil va 1944-yilning jangovor voqealarini hamohang tasvirlaydi. Anglashiladiki, yuqoridagi parema mavzu talabi bilan qo'llanilgan.

"Mirzo Ulug'bek" dramasida ham maqollardan unumli foydalangan:

Shaltoqlarda ag'namagin, ko'taril, yuksal,

So'qir baxtdan ko'rar ko'zli baxtsizlik afzal.³⁸

Mirzo Ulug'bek nutqidan olingan ushbu maqol voqealar jarayoniga ildamlilik, shiddatkorlik olib kirgan. Qolaversa, Ulu'bek ruhiyatini ham ochib bergan, ya'ni, *so'qir baxt* va *ko'rar ko'zli baxtsizlik* misolidagi antonimik birikmalar tag m'ano ifodalagan. *So'qir baxt* – saltanat podshohi, *ko'rar ko'zli baxtsizlik* esa falakkiyot olami podshohi kabi tag ma'nolarga ega. Asar

³⁷Шайхзода,Мақсуд. Дунё боқий. –Тошкент: Ғ.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашрети, 1988.– Б.303.

³⁸Шайхзода,Мақсуд. Мирзо Улуғбек. – Тошкент: Ўқитувчи,1994. – Б.13.

mazmunida anglash mumkinki, Mirzo Ulug‘bek uchun temuriylar saltanatidagi yovuzliklarga ko‘z yumish – so‘qir baxtsizlik, falakkiyot sirlarini ko‘ra bilish, lekin ilmuni dunyoga ko‘rsata olmaslik – ko‘rar ko‘zli baxtsizlikdir.

Badiiy matn ifodalagan estetik qiymatning kuchi til birliklarini o‘rinli qo‘llay bilishda ko‘rinadi va mavjud axborotda muallifning badiiy estetik dunyoqarashi ifoda etiladi. “Mirzo Ulug‘bek” dramasida Abdulatif tilida berilgan quyidagi maqol ham asar badiiyatini oshirishga hizmat qilgan:

*Olov yoqib gap qozonin qaynatish kerak,
Qalovini topib olsa, qor ham yonar-ku!*³⁹

Adib “qalovini topsang, qor ham yonadi” maqolini she‘riy vaznga xoslash maqsadida ma‘lum o‘zgarishlar bilan qo‘llash orqali voqealar jarayonidagi ruhiyatni yanada oshirgan. Ulug‘bek Firuzani boshqa rafiqalariga qaraganda ortiqroq ko‘radi. Abdulatif ularni ayirish orqali otasidan o‘ch olmoqchi bo‘ladi va ularga fitna uyushtiradi. Kontekstda maqoldagi *qalov* – Abdulatifning Abbos ismli mahrami, *qor* leksemasi esa fitna semalariga ega.

Maqollar har bir xalqning o‘zligini anglatib turuvchi ma‘naviy meros hisoblanadi. Maqsud Shayxzodaning dramalarida esa ma‘naviy merosimiz namunalari salmog‘i anchagina:

Balki, bu gap zamirida bir hodisa bor.

Esmasa el, qimirlamas daraxt tepasi.

*Qiblagohim, bu voqea bir tekshirilsa!*⁴⁰

Adib badiiy timsollarning “qalovini topsa, qor ham yonadi” paremasi misolidagi harakatlari borasidagi voqealar jarayonidagi urinishlarni jadallashtirish maqsadini ifodalash uchun “*shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi*” maqolini shayxona o‘zgarishlar – inversiya bilan qo‘llaydi. va qahramon harakterini ham ochib bergan.

³⁹Шайхзода,Максуд.Мирзо Улуғбек. – Тошкент: Ўқитувчи,1994. – Б.89.
⁴⁰Шайхзода,Максуд.Мирзо Улуғбек. – Тошкент: Ўқитувчи,1994. – Б.105.

Abdulatif nutqida keltirilgan maqolning tag ma'nosida ayyorlik, shumlik, ikkiyuzlamachilik kabi semalar umumlashgan.

Asarda xalq og'zaki ijodidagi maqol, hikmatli so'zlar, iboralar ijodkor tomonidan ma'lum darajada qayta ishlanadi va unda shakldan ko'ra mazmunga ko'proq e'tibor beriladi. Masalan, Ulug'bek nutqida shunday hikmat keltiriladi.

Axir, *atir bir shishaga bekitilganda*

Bu gap, *atir past narsadir degani emas.*

Yo *oltinni maxfiy joyga yashirgan bilan*

U, *arzimas tosh ekan deb kim ayta olur?*⁴¹

Drama sujetida Abdulatif bir muddat surgunda yuradi. Otasi bilan uchrashgach Ulug'bek unga shunday hikmatomuz tashbehni qo'llaydi unda "atir shisha ichida qafasda turgani va uning tarovatidan kech kim bahramand bo'lmagani bilan, kunlar kelib, uning aslini hamma biladi" mazmuni mujassam. Fikrni yanada oydinlashtirish maqsadida, keying satrlarda oltinni ham atirga (ya'ni, Abdulatifga) muqoyasa etadi. Bu esa Maqsud Shayxzoda ijodidagi orginallikdan bir namunadir. U tildagi lisoniy vositani yanada kengaytirib, o'z o'rnida qo'llay olgan.

Maqsud Shayxzoda asar matnida o'zi ham xalq maqollari mazmunidan kelib chiqqan holda yuqoridagi kabi individual hikmatli so'zlar hosil qila olgan. Masalan, "Mirzo Ulug'bek" dramasida quyidagi pizremani uchratamiz:

Siz xotirjam bo'ling, o'g'lim, ishlar joyida.

*Ota toji o'g'il boshin bezash – qoida.*⁴²

Gavharshodbegim tomonidan qo'llanilgan maqolda asar matnidagi kommunikativ maqsad aniq va ravshan ifodalab berilgan. Gavharshodbegim Abdulazizdan ko'ra Abdulatifni ortiqroq ko'radi. Shuning uchun taxtga uni loyiq deb biladi. Maqol zamirida "azaliyat qonunini o'zgartira olmaymiz, toj – otadan o'g'ilga meros" jumlasida kommunikativ maqsad mavjud.

⁴¹Шайхзода, Максуд. Мирзо Улуғбек. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 62.

⁴²Шайхзода, Максуд. Мирзо Улуғбек. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 96.

Shayxzoda xayolot falsafasi keng buyuk ijodkordir. Buning isboti sifatida dramalarida qo'llanilgan ko'plab individual hikmatomuz so'zlarda ko'rishimiz mumkin. Masalan, **o'z egasin qopgan ko'ppak – quturgan itdir**(M.U.158), **sabr qilmoq – sobirlik xudovandning maziyatlaridir** (189), **karkidon fil o'rnini bosolmas**(J.M.343), **sher ming yil keksaysa ham tulki bo'lmaydi** (351), **qo'rqqoq o'lar har lahza, mard faqat bir gal**(402), **yurt shaydosi ko'milmas g'urbatda – go'rda** (417) kabi.

Dramatik asarlarda voqeya-hodisalar badiiy timsollarning harakati va nutqi vositasida yoritiladi. Boshqacha aytganda, qahramonlarning tashqi qiyofasi, ichki dunyosi, dunyoqarashi, xarakteri, xislatlari, orzu-umidlari ularning so'zida namoyon bo'ladi. Shu boisdan dramaturg bosh timsollardan tortib, oddiy personaj nutqiga ham jiddiy e'tibor qaratadi, ularning xarakteri, kasb-kori, martabasiga ko'ra so'zlatadi. Albatta, buni uddasidan chiqish mahorat. Maqsud Shayxzoda ana shunday yuksak mahorat sohibi. Dramaturgning "Mirzo Ulug'bek" tarixiy fojiasida buning yorqin guvohi bo'lamiz.

Adabiyotshunoslar e'tirof etganlaridek, "Mirzo Ulug'bek" tragediyasiga o'ziga xos tarovat baxsh etgan xislatlardan yana biri shundaki, asarda muallif shaxsi yo'qolib ketmagan. Asarning yozilish tarzida Shayxzoda uslubini yaqqol sezib turamiz. Tragediya oq she'rda yozilgan. Bu asarning ko'tarinki ruhini ta'minlashda muhim omil bo'lgan. Ko'p sahnalar Shayxzodaga xos jo'shqinlik va harorat bilan bitilgan. Ko'p qahramon-larning nutqida biz Shayxzodaga xos falsafiy teranlikni, obrazlilikni ko'ramiz. Nihoyat, bu asar ham "Jaloliddin Manguberdi" kabi ko'tarinki, romantik ruhda yaratilganini aytish kerak.⁴³

Asardagi 30 yaqin barcha timsollar nutqida ularning butun boricha ko'rasiz, tasavvur qilasiz. Boshqacha aytganda, fojiadagi posbon posboncha, navkar navkarcha, sipohiy sipohiycha, ijod, ilm ahli falsafiy, ijodiy, bosh timsol

⁴³XX asr ўzbek adabiyoti tarixi: Университетлар ва педагогика институтлари бакалавр ихтисосини олувчилар учун дарслик/ Н.Каримов, С.Мамажонов, Б.Назаров ва бошқ/ – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 319-320.

Mirzo Ulug‘bek esa shoh sifatida shohona, olim sifatida olimona fikrlaydi va so‘zlaydi. Buni biz Ulug‘bek timsoli nutqiga xos hikmatlar misolida tahlil qilmoqchimiz.

Maqsud Shayxzodaning dramaturglik mahorati bilan Ulug‘bekning hikmatlarida unga xos ulug‘vorlik, salobat, buyuklik, yuksak mushohada, falsafa yorqin bo‘y ko‘rsatadi. “... tragediyada Ulug‘bek teran mulohazali, bilimdon, ma‘rifatli, insonparvar shaxs sifatida ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. U mutafakkir olim sifatida o‘z zamonidan, o‘z muhitidan ancha ilgarilab ketgan”.⁴⁴

Shoir Ulug‘bek tilidan olamning yagonaligini, uning sarvari insoniyat ekanligini hamda uning ham yagonaligini quyidagicha hikmatona qiyos bilan ifodalaydi:

*Quyosh biru, dunyo biru, insoniyat bir.*⁴⁵

Boshqa o‘rinda muallif Ulug‘bek timsoli orqali hamma narsaning oxiri, yakuni borligini hikmatli uqtiradi:

Unutmaki, lazzatning ham bir sarhadi bor. (II.56-b.)

Fojia syujeti voqyealari rivojlanib borar ekan, o‘quvchi bosh timsol Ulug‘bekka xos xos ijobiy xislatlarni uning nutqidan anglab boradi. Chunonchi, Ulug‘bek darvesh va qalandarlarga mehnat qilib, halol non topish lozimligini ham xalqona maqollar mazmuniga monand hikmat bilan tushuntiradi:

Mehnat nima ekanini o‘rgansalaring

Bundan a‘lo hunar ham yo‘q, savob ham yo‘qdir. (II.59-b.)

Ulug‘bekning yori Firuzaga aytgan quyidagi fikrlaridan esa boylik osonlik bilga qo‘lga kirmasligini anglaysiz:

Oltin ko‘kdan tushmas, yerning tagidan chiqar. (72-b.)

⁴⁴XX asr ўzbek adabiyeti tarixi: Universitetlar va pedagogika institutlari bakalavr ixtisosini oluvchilar uchun darслик/ Н.Каримов, С.Мамажонов, Б.Назаров ва бошқ/ – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 319.

⁴⁵Мақсуд Шайхзода. Мирзо Улуғбек. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 21. Барча мисоллар шу манбадан олинганлиги боис кейинги ўринларда саҳифани кўрсатиш билан кифояланамиз.

Ulug‘bek nutqiga xos ayrim hikmatlarda uning o‘ziga xos noyob xislatlar ham namoyon bo‘ladi. Masalan, Ulug‘bek Abdulatifga arboblarning xususida quyidagilarni aytadi:

Arboblarning kamyob xislati:

Muhim bilan nomuhimni ajrata olmoq.(II.63-b.)

Fojsiya voqyealari Ulug‘bekning arbob ekanligidan dalolat beradiki, o‘quvchi yuqoridagi fikrlarga amaliy isbot topgandek bo‘ladi.

Ibratli yana bir jihat shundaki, Ulug‘bek uchun otasi Amir Temur va onasi Gavharshodbegim azizu mukarram. Bu uning harakatlari-yu nutqida kuzatiladi. Maqsud Shayxzodaning iste‘dodi shundaki, u Ulug‘bek nutqi orqali onalar haqidagi hikmatlar sirasini yana bir hikmat bilan boyitadi:

Volidaning har qadami xayrlik manzil.(II.97-b.)

Hayot hikmatli, umr hikmatli. Insonning so‘zu fikri – boringki, butun borlig‘i hikmat. Buni biz Ulug‘bek timsolida yana bir bora ko‘ramiz. U shohlik, olimlik, otalik martabasida turli odamlar bilan suhbatlashadi, hayotida turli voqyea-hodisalarni ko‘radi, xulosalar chiqaradi, biroq uning xulosalari oddiy xulosalar emas, balki ulug‘bekona, o‘zgacha.

Maqsud Shayxzoda mahoratidan sayqal topgan Ulug‘bek nutqiga xos shubha, gumon, tuhmat, tuhmatchi xususidagi quyidagi hikmatona fikrlar mulohazamiz dalilidir: *Shubha – boshqa, dalil – boshqa, xulosa – boshqa!*

Vasvasalar shaytonga xos, umid – insonga!...(II.111-b.)

Tuhmatchi u – jirkanch tana, qurtlagan maraz.(II.122-b.)

Tug‘matchining dardi tilda emas, dilida.(II.123-b.)

Fojsiyada Mirzo Ulug‘bek nafaqat adolatli shoh, mehribon ota, balki ziyoli, ilm fidoiysi, olim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu uning ilm, ma‘rifat, ilmning o‘rni haqidagi quyidagi hikmatli fikrlarida ham ifodalangan: *Mamlakatga urfon kerak, ilmu ma‘rifat,*

Boshboshdoqlik emas, idrok, nizom, farosat.(II.134-b.)

Ilmu fanda shohu gado tafovuti yo ‘q. (II.151-b.)

Ilm inson ko'zin ochar, qulog'in ochar.

Fan miyaga idrok bilan yorug'in sochar.(II.152-b.)

Fojiadagi hikmatlar boshqa hikmatlardan she'riy uslubdaligi, hayotiy asosiga egaligi, ya'ni asar timsollari hayoti misolida amaliy isbotini topganligi bilan xarakterli. Bir dalil. Ulug'bek o'z hayoti davomida ma'rifat dushmanlarining ayyorona raziliklarini ko'rib, quyidagi hikmatli xulosaga keladi:

Ma'rifatning dushmanlari misoli shayton.(II.173-b.)

Ulug'bek olimlarni, shoirlarni o'z saroyiga to'playdi, ularga rahnomolik va ustozlik qiladi. Ayniqsa, u ijod ahliga, xususan, Sakkokiyga ehtirom ko'rsatadi. Bugina emas, shoirlarga, ijodga ehtirom uning nutqida ham hikmatona ifodalangan:

Shoirsiz, yurt bir bog'dirki, bulbuli o'lgan...(II.201-b.)

Ozod Sharafiddinov aytganidek, "...tragediyada Ulug'bek teran mulohazali, bilimdon, ma'rifatli, insonparvar shaxs sifatida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. U mutafakkir olim sifatida o'z zamonidan, o'z muhitidan ancha ilgarilab ketgan".⁴⁶ Alloma nutqiga xos ayrim hikmatlardan hayot falsafasini o'qiysiz va uqasiz:

Zamon o'tar, vahshat bitar, yomonlik ketar.(II.152-b.)

Chindan ham, vaqt o'tishi bilan yomonlik ham o'tib ketadi, chunki u abadiy emas.

Ayrim hikmatlar xalq maqollari mazmuniga monand. Chindan ham yaxshilik, ezgulik uchun yolg'on gapirish gunoh emas:

Yaxshi niyat bilan yolg'on – jinoyat emas.(II.39-b.)

Takror bo'lsa-da, aytamiz, asar matnidagi Ulug'bek timsoliga xos ko'p hikmatlar uning o'zi haqida tasavvur beradi, so'zidan uning o'zini uqqasiz. Ulug'bek – adolatli shoh. U sultonsiz davlat bo'lmasligini, toju taxtning

⁴⁶XX asr ўzbek adabiyeti tarixi: Universitetlar va pedagogika institutlari bakalavr ixtisosini oluvchilar uchun darслик/ Н.Каримов, С.Мамажонов, Б.Назаров ва бошқ/ – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 319.

o'tkinchiligini, ilmu ma'rifat abadiyligini ham obrazli majozlar, o'xshatishlar bilan hikmatona ifodalaydi:

Saltanatki, sultoni yo 'q – boshsiz bir tana.(II.133-b.)

Taxtlar dengiz tug'yonida qayiqqa o'xshar.(II.165-b.)

... sulton o'lsa hamki, donishmand yashar.

Olimlarga mangu hayot tarixi-bashar.(II.177-b.)

Maqsud Shayxzodaning so'z boyligi yuqori darajadadir. U qo'llagan har bir til birliklari asar mazmuniga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etgan.

Dramalarida qo'llanilgan paremlar muallif olg'a surgan g'oyani falsafiy-estetik jihatdan umumlashtirishda muhim uslubiy vazifa bajargan. Qolaversa, matndagi maqollar lingvopoetik jihatdan ham badiiy asarning ma'nosini kengaytirishda, asar tilini jozibador ko'rsatishda, personajlar xarakterini yorqinroq yoritishga xizmat qilgan.

3.4. Fojia matnida forsiy, arabiy kiritmalarni qo'llanishi va uslubiy vazifalari

O'zbek tilshunosligida nutqda qo'llanuvchi va uchraydigan chet so'zlar ikki katta guruhga bo'lib tasnif qilinadi va shu asosda o'rganiladi:

1. O'zlashma so'zlar yoki o'zlashmalar.
2. Qo'llanma so'zlar yoki qo'llanmalar.

Qo'llanma so'zlar kommunikativ va uslubiy vazifasiga ko'ra, o'z navbatida, yana ikkiga bo'lib o'rganiladi:

1. Ekzotik leksika yoki ekzotizmlar.
2. Kiritma so'z va iboralar (chet til kiritmalari).⁴⁷

Qo'llanma so'zlar genetik jihatdan boshqa tilniki bo'lgani holda, turli sabab va maqsadlar natijasida o'zga til matnlarida uchraydigan leksemalardir.⁴⁸

Qo'llanma so'zlar o'zi qo'llanayotgan tilniki emasligi, faqat bu til

⁴⁷ Ўзбек тили лексикологияси, 84-, 88-94-бетлар.

⁴⁸ Ўзбек тили лексикологияси, 88-бет.

matnlarida ishlatilayotganligi, ammo tilga o'zlashmaganligi bilan o'zlashma so'zlardan farqlanadi. Demak, og'zaki va yozma nutq shakllari orqali bir tildan ikkinchi bir tilga o'tmagan, faqat shu til matnlarida ma'lum maqsadlar yo'lida qo'llanadigan, o'z til lug'atlarida qayd etilmaydigan so'zlar qo'llanma so'zlardir. Adabiyotlarda qo'llanma so'zlar **o'zlashmagan so'z⁴⁹**, **chet so'z**, **qo'llanma so'z⁵⁰** nomlari bilan talqin qilinadi. Bu terminlarning har birida o'ziga xos ilmiylik bor.

O. Jumaniyozov fikricha, qo'llanma so'zga berilgan ta'rif, ya'ni ularning o'zi qo'llanayotgan tilniki emasligi, faqat bu til matnlarida ishlatilayotganligining o'zi qo'llanma so'zlar iborasini inkor qilib, ularni chet so'zlar deyilishini taqozo qiladi. N. Uluqov fikricha, o'zga tillardan tilga kirib kelgan so'zlarning barchasi chet so'zlar deb yuritilar va ular o'zlashgan hamda o'zlashmagan so'zlar guruhiga ajratilar ekan, tilga o'zlashmaganligi faqat o'z til matnlaridagina qo'llanishiga ko'ra bunday so'zlarni qo'llanma so'zlar deb atash maqsadga muvofiq.

Olim talqinicha, bu guruhga mansub so'zlar milliy matnlarda faqatgina ishlatiladi, ya'ni qo'llanadi, tilga tamoman qabul qilinmaydi, o'zlashmaydi. Qo'llanma so'zlar quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

1. Qo'llanma so'zlar genetik jihatdan o'zga tilniki bo'lgan so'zlardir.
2. Qo'llanma so'zlar turli tillardan qilingan tarjima matnlari-dagina uchraydi. Chunki qo'llanma so'zlar mazmunan va shaklan o'zga tilga mansub hamda faqat shu til egalari uchun tushunarli bo'lib, ularning kunda-lik hayoti haqidagi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.
3. Bunday so'zlar o'z til lug'atlarida qayd etilmaydi. Ularning ma'no-lari ko'pincha tushunarsiz bo'ladi, shuning uchun ularning ma'nolari ko'proq hoshiya (snoska)da alohida izohlar bilan ta'minlanadi.
4. Qo'llanma so'zlar mohiyatiga ko'ra tilga o'zlashmovchi lisoniy vositalardir.
5. Qo'llanma so'zlar kommunikativ va uslubiy vazifasiga ko'ra

⁴⁹ Мукаррамов М. Бадиий тилда “ўзлашмаган” сўзларнинг қўлланилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979. – № 4. – Б. 33.

⁵⁰ Ўзбек тили лексикологияси, 88-бет.

ikki turga bo‘linadi:

- 1) kiritma so‘z va iboralar.
- 2) ekzotik leksika yoki ekzotizmlar.⁵¹

Qo‘llanma so‘zlarning har ikki tipi o‘ziga xos kommunikativ va uslubiy ma‘no xususiyatlariga ega bo‘lib, matnda ma‘lum vazifalarni bajaradi.

Qo‘llanmalarning bir turi kiritma so‘z va kiritma iboralar (иностранные вкрепленія)dir. Kiritma so‘z va iboralar ham asosan tarjima adabiyotida uchraydi.⁵² Kiritma so‘z va iboralar ba‘zi badiiy matnlarda uslubiy maqsadlarda qo‘llanadi.

Shayxulislom

Rasulilloh Muhammadning hadisini eslang:

“Talabulilm balo‘d fis – Sin” – ma‘nosi nima?

Ya‘ni, hatto chinga borib o‘qing ilmni. (II, 25-b.)

Yuqoridagi Shayxulislom nutqida qo‘llangan kiritma uning dindorligini, ilm-ma‘rifatli kishi ekanligini ifodalashga xizmat qilgan.

Kiritma birikmalar aslida tarjima tilida muqobilining mavjudligi, shaklan so‘z birikmasi, gap tarzida bo‘lishi kabi xususiyatlari bilan ekzotizmlardan farqlanadi. Kiritmalar badiiy matnda ma‘lum shaxslarga xos individual xususiyatlarni ifodalash, tarixiy va diniy koloritni ifodalash maqsadida qo‘llanadi. Masalan,

Ulug‘bek

Men o‘ydirgan shu shu hadisni: “Talabulilm

Farizatun alo kulli muslim-u muslimot”.

Shu kalomning ma‘nosiga xo‘b tushunarsiz.

Bu ne degan? – Ilm o‘qimoq farz erur birday

Musulmonning erlari-yu ayollariga. (II, 33-b.)

Bobo Kayfi

⁵¹ Улуков Н. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. ... диссертация. – Тошкент, 1997. – Б.45.

⁵² Ўзбек тили лексикологияси, 88-б.

*Bilasanmi, Said Obid, bir kun bozorda
Umar Xayyom, xuddi sendek, ahli ollohdan, –
Bir muftidan dashnom – ta'na eshitaverib
Shunday degan:*

***“Ey muftiyi shahr, az tu purkortarim,
Bo in hama mastiy z-tu hushyortarim.
Mo xuni razon xo‘rim-u tu xuni kason,
Insof bideh: – kudom xunxortarim”***

Said Obid

Bo ‘ldi, bo ‘ldi, jim, la ‘nati!

Qalandarlar

Bu ne degani?

Talaba

*Xohlasalar, aytay buning tarjimasini:
“Ey shahar muftisi, sendan ishkormiz,
Nuqul mast yursak-da, sendan hushyormiz.
Ichamiz biz uzum, sen inson qonin,
Rostin ayt: - qaysimiz ko‘proq xunxormiz?”(II, 47-b.)*

Ulug‘bek

*Xaloyiqning ahvolini o‘ylamoq kerak.
Sultonlarni “Zillolohu fil-arz” deydilar.
Bu – xudoning yer yuzida soyasi demak.(II, 65-b.)*

Musulmon davlatlarida podshohlar tangrining yer yuzidagi soyasi deb hisoblaganlar. Shuni oqlash uchun “As-salotin zillalohu fil arz” (sultonlar xudoning yer yuzidagi ko‘lankasidir degan hadis ham yaratilgan.

Firuza

*Men bitta bayt topib oldim, g‘oyat ma ‘noli...
Uning forsi matni shunday:*

“Harchand, mo ‘lki-ho ‘sn baziri-negini to ‘st,

Shuxiy mako 'nki chashmi-badon dar kamini to 'st''.

Ulug'bek

Shu baytning turkiysini anglatib ber-chi!

Firuza

Ya'ni, shoir demoqchiki: "Garchi go 'zallik

Mulki sening uzugingning tagida turar,

Bevapvolik qila ko 'rma, zeroki, har on

Pistirmadan yomon ko 'zli dushmanlar qarar".(II, 69-b.)

Ulug'bek

Menga bir vaqt "Ilmi-aruz" ta 'lim qilganda

Ismatullo Buxoriy, u – rahmatlik ustoz

O'rgatardi: "Alma'ni fib – batnush shoir" deb.

Y'ani: shoir ichidadur she'r ma'nosi.(II, 70-b.)

Ulug'bek buni quyidagicha uqtiradi:

Bu – uzukning ko 'zxonasi... Bu gavhar emas.

Yaxshilab boq: podshohlik muhri o'yilgan.

Podshohning muhri esa farmonga dalil.

Farmon esa, mamlakatning egasiga dalil.

Farmon esa, mamlakatning egasiga xos.

Tushundingmi?(II, 71-b.)

Shungdek, dramada mashhur forscha iboralar ham qo'llangan:

"Buxoro quvvati islomi din ast,

Samarqand sayqali royi zamin ast..."

Bu forscha bayt o'rta asrlarda xalq orasida keng tarqalgan. Ma'nosi: Buxoro musulmon dinining tayanchi bo'lsa, Samarqand yer yuzining sayqali (jilosi)dir.

Ko'rinadiki, xorijiy til kiritmalari, asosan, arabiy va forsiy bo'lib, Shaxxulislom, Ulug'bek nutqida qo'llangan. Ulug'bek nutqida qo'llangan kiritmalar uning ilmli, donishmand, ma'rifatparvarlikni, unga xos salobat va

ulug‘vorlikni ifodalashga xizmat qilgan. Albatta, ular vositasida tarixiy va diniy kolorit ham ifodalangan.

III bob bo‘yicha xulosa

1. Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” va “Jaloliddin Manguberdi” dramalarini o‘zbek xalqiga toj bo‘la olgan shoh asarlardir.

2. Har ikki drama erkin vaznda, ya’ni oq she’rda bitilgan. Odatda, she’riyatda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idroketiladi. Chunki she’rda o‘ziga xos jozibador ohang bo‘ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo‘llash natijasida erishiladi. Tilshunoslikda bu kabi masalalarni lingvopoetikaning bir qismi bo‘lgan alohida yo‘nalish fonopoetikada o‘rganiladi. Maqsud Shayxzoda dramalarini yaratishda fonopoetik vositalarga ham alohida e’tibor beradi va ular qahramonlar nutqiga alohida zeb bergan. Asarlarning badiiy qimmatini yuksaltirgan.

3. Maqsud Shayxzoda dramalarida undalmalarham kommunikativ maqsadni yetkazib berishda appelyativ (xitob va murojaat orqali muloqotni boshlash), konnotativ (subyektiv munosabat – salbiy va ijobiy munosabatlarni ifodalash) hamda emotiv (hissiy munosabat) funksiyalarni bajargan. Shuningdek asarda aks etgan tarixiy davr va badiiy timsollarning xatti-harakatlarini ochib berishga xizmat qilgan.

4. Badiiy matn ifodalagan estetik qiymatning kuchi til birliklarini o‘rinli qo‘llay bilishda ko‘rinadi va mavjud axborotda muallifning badiiy estetik dunyoqarashi ifoda etiladi. Dramalarda biz bevosita Maqsud Shayxzodaga xos bo‘lgan individuallikni ko‘ramiz. Ayniqsa, muallif tomonidan “kashf etilgan” hikmatomuz so‘zlar zamiridagi paremlar muallif badiiy dunyoqarashi yuksak ekanligini yana bir bor isbotlab bergan.

XULOSA

Maqsud Shayxzoda dramalarining lingvopoetikasini o‘rganish jarayonida quyidagixulosalarga keldik:

1. Dramatik, jumladan, tragediyalarda voqea-hodisalar, asosan, badiiy timsollarning nutqi va xatti-harakatlari asosida yoritiladi. Shu bois nutqning emotsional-ekspressiv funksiyasi ko‘proq fonetik vositalar yordamida ifodalanadi. Fonetik vositalar badiiy diskursning ahamiyatli belgisi, nutqiy go‘zallikni yaratuvchi unsurlardan sanaladi. Bu Maqsud Shayxzoda dramalarida yorqin kuzatiladi.

2. Maqsud Shayxzoda o‘z she‘rlarida lisoniy vositalardan va poetik uslubiy an‘analardan mohirona foydalangan hamda o‘ziga xos orginal uslubini yarata olgan, bu shoir dramatik asarlarining usluban ravon va xalqchilligida, ritmik jozibadorligi va o‘ynoqiligida yorqin ko‘rinadi.

3. Poetik matnlarda muallif tomonidan to‘g‘ri tanlangan vositalar o‘ziga xos ma‘no nozikliklariga ega bo‘ladi. Tilimizdagi bir qator so‘z va iboralarning emotsional-ekspressiv xususiyatiga ega bo‘lishi ularning ijodiyotda lingvopoetik vosita sifatida ishtirok etishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun Maqsud Shayxzoda tomonidan ma‘lum bir uslubiy maqsadda tanlangan til birliklari fikrlarning o‘quvchi tomonidan tez va to‘g‘ri tushunilishini ta‘minlashdan tashqari obrazlilikni ham vujudga keltirgan. Dramalarda asar mazmunini ochishga, qahramonlar xarakter-xususiyatlarini obrazli tarzda ifodalashda ko‘chma ma‘no asosida yuzaga keluvchi vositalar muhim ahamiyatga ega. Maqsud Shayxzoda so‘zning ko‘chma ma‘nolaridan foydalanishda so‘zlarning konnotativ-ifoda semalariga o‘ziga xos uslubda yondashgan. Shuning uchun uning dramalarida qo‘llanilgan metafora, sinekdoxa kabi tasviriy vositalarning badiiy matndagi uslubiy xususiyatlari muallifning individual uslubi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lgan.

4. Har bir ijodkor tildagi mavjud vositalardan o‘rinli foydalana olishi bilan o‘z ijodi mahsuli bo‘lgan ijodiyoti tilining aniq va tushunarli, ifodali va ta‘sirchanligini ta‘minlashga erishadi. Dramalarda qo‘llanilgan okkozanalizmlar, murojaat shakllari fikr ifodalashda qulaylik tug‘dirishdan tashqari tasvirlangan jarayonni, voqelikning poetik manzarasini o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniq

gavdalantiradi, unda zavq uygʻotadi, kitobxonda ularga nisbatan subyektiv munosabatning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

5. Maqsud Shayxzoda tomonidan fojealarda badiiy timsollar nutqida qoʻllangan maqollar, hikmatli soʻzlar zamirida oʻziga xos badiiy hukm, falsafiy xulosa yotadi. Xalq maqollari va matallari taʼsirida shoir tomonidan “kashf etilgan” aforizmlar asarlarning taʼsirchanligini, poetik salmoqdorligini taʼminlagan.

6. Shoir “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulugʻbek” tarixiy fojialarining har ikkisini erkin vaznda, ya'ni oq she'rda bitgan. Birinchidan, dramatik asarni bunday she'riy usulda, xususan, tarixiy fojiani oq she'r usulida yaratilishi oʻzbek adabiyoti tarixida yangilik va Maqsud Shayxzodagagina xos mahorat, oʻzgachalik edi. Ikkinchidan, asarlar yaratilgan she'riy vazn talabiga koʻra fojialarda tilining fonetik-fonologik vositalari va birliklaridan yuksak mahorat bilan foydalanilgan. Shu bois tragediyalarda fonopoetik vositalar faol qoʻllangan.

Shoir alleteratsiya va epifora kabi fonetik vositalardan yuksak mahorat bilan foydalanib, oʻz fojeaviy dramalarga ohangdorlik va jozibadorlik baxsh etgan.

7. Shoir inversiya, ellipsis kabi poetik sintaktik unsurlardan ham oʻrinli foydalanib, she'riy ritm, vazn va qofiya talablarini bajarishga erishgan hamda oʻzining lirik mushohadalarini ixcham, siqiq ifodalagan.

8. Maqsud Shayxzoda lingvopoetik vositalardan foydalanishda oʻzbek adabiyotining davrlar osha shakllangan va takomillashgan anʼana va mezonlariga amal qiladi. Shayxzoda favqulodda kashf qilgan lingvopoetik vositalar, kutilmagan obrazli ifodalar kitobxonni hayratga soladi, ulardagi shoirning hayotni teran koʻz bilan kuzatishi asosida yuzaga kelgan oʻziga xos badiiy tafakkur, bir-birini toʻldiruvchi mantiqiy xulosalar matnga poetik boʻyoq, taʼsirchanlik bagʻishlaydi. Shuning uchun u tomonidan qoʻllanilgan va matnga bogʻliq holda badiiy obrazga aylangan tushunchalar dramadan dramaga koʻchar ekan, har gal oʻzlarining yangi-yangi nozik qirralarini kitobxonga oshkor etadi va poetik taʼsirchanlik xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

9. Maqsud Shayxzoda yuksak mahorat bilan tarixiy voqea-hodisalarni, tarixiy qahramonlar timsolini va ularning fojeali taqdirini betakror uslubda yaratishga erishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
2. Мирзиёев Ш “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир” мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017 йил, 4август.
3. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // Халқ сўзи, 2017 йил, 8 февраль, №28 (6722). – Б.1-2.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 13 майдаги «Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида»ги ПФ-4797 сонли Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 80 б.

Ilmiy adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 1984.
2. Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент: Фан, 1981.
3. АрутюноваН. Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. – М., 1990.
4. Аҳмедов Ҳ. Ўзбек адабиётида насрий шеър: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995.
5. Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг ижтимоий тарихий асослари // Ўзбек тили лексикологияси, Тошкент: Фан, 1981.

6. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1991.
7. Воҳидов Р., Неъматов Х., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. – Тошкент: Ёзувчи, 2001.
8. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988.
9. Ёриев Б. Язык поэзии М. Шайхзаде: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1979.
10. Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадиий нутқнинг роли, НДА. – Тошкент, 1993.
11. Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1982.
12. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1999.
13. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. ДДА. – Тошкент, 1993.
14. Йўлдошев Б., Бобожонов Ф., Пардаев З. Бадиий асар тили масалалари. – Навоий: Навоий ДПИ нашри, 2001.
15. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.
16. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002.
17. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994.
18. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
19. Кунгуров Р., Каримов С., Эргашева К. Лингвостатистические аспекты исследования поэтических текстов современного узбекского языка // Вопросы моделирования языка и машинного перевода. Сборник научных трудов. – Самарқанд, 1984.

20. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона нашриёти, 2009.
21. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
22. Мирзаев И.К. Теория лингвистического анализа текста. Курс лекций. – Самарканд: изд. СамГУ, 1987.
23. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, Фан, 2000.
24. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
25. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи. НДА. – Тошкент, 2004.
26. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Ўқув қўлланмаси (магистрлар учун). Тошкент, 2008.
27. Расулов А. Ўзлик сари йўл. – Тошкент: Адиб, 2012.
28. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007.
29. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси, ДДА. – Тошкент, 2002.
30. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, 1990.
31. Шомақсудов А. Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
32. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – I ж. – 679 б.
33. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – II ж. – 671 б.
34. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – III ж. – 687 б.
35. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – IV ж. – 606 б.

36. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – V ж. – 591 б.

37. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 286 б.

38. Қурбонов Т. Тарихий бадиий асар ва давр тили масалалари.- Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

39. Қўнғуров Р.Ўзбек тилининг тасвирий воситалари.–Тошкент:Фан, 1977.

40. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. –Тошкент: ТошДУ нашри, 1975.

41. Ҳамидов З. Навоий бадиий санъатлари. –Тошкент: Университет, 2001.

42. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.

43. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970.

44. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.

45. Ҳусанов Б., Ғуломов В. Муомала маданияти. – Тошкент, 2007.

Internet saytlari

46. www.ziyonet.uz

47. www.ziyouz.com

48. www.kh-davron.uz